


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ELEKTR MASHINALARI**

**FANINING «TRANSFORMATORLAR» QISMI  
BO'YICHA KURS LOYIHASINI BAJARISHGA OID**

**O'QUV-METODIK QO'LLANMA**



**TOSHKENT 2012**

N.B. Pirmatov, Z.A. Yarmuxamedova, G.N. Mustafakulova

Elektr mashinalari fanining transformatorlar qismi bo'yicha kurs loyihasini bajarishga oid o'quv-metodik qo'llanma. / N.B. Pirmatov, Z.A. Yarmuxamedova, G.N. Mustafakulova. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.–T.: ToshDTU, 2012 – 117 b.

Mazkur o'quv-metodik qo'llanmada Elektr mashinalari fanining o'quv rejasiga asosan namunaviy dastur bo'yicha yozilgan.

Ushbu o'quv-metodik qo'llanmada uch fazali ikki chulg'amli kuch transformatorlarini loyihalash masalalari yoritilgan.

Mazkur qo'llanma «Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari», «Elektr energetikasi» va «Kasb ta'limi (elektr energetikasi)» yo'nalishlarining talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan ishlab chiqarish korxonalarida ishlayotgan mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

**Taqrizchilar:** U.T. Berdiyev –Toshkent temir–yo'l muhandislari institutining «Elektr transporti» kafedrasi mudiri, texnika fanlar nomzodi dotsent

A.T. Imomnazarov – Toshkent Davlat Texnika Universiteti «Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari» kafedrasi texnika fanlar nomzodi dotsent

## Kirish

Zamonaviy fan va texnikaning istiqboli har xil ishlab chiqarish jarayonlari hamda qurilmalarida elektr energiyani qo'llash bilan uzviy bog'langan.

Energetika tizimsida elektr energiyani uzatish (bunda asosan ikki chulg'amli transformatorlar ishlatilib, agar iste'molchilar uchun ikki klassdagi kuchlanish talab qilingan hollarda ikkita ikki chulg'amli uch fazali transformator o'rniiga bitta katta quvvatli uch chulg'amli uch fazali transformator ishlatish iqtisodiy jihatdan samarali bo'ladi); sanoat korxonalari, shaharlar, qishloq va suv xo'jaligi elektr iste'molchilari orasida energiyani taqsimlash va ularni elektr energiya bilan ta'minlash tizimsida kuch transformatorlari keng qo'llaniladi.

Ikki va undan ko'p induktiv jihatdan bog'langan chulg'ammlari bo'lgan va o'zgaruvchan tok elektr energiyasi parametrlarini (kuchlanish, tok, chastota, fazalar soni) elektromagnit induksiya yo'li bilan o'zgartiradigan statik elektromagnit apparatga transformator deyiladi.

O'zgaruvchan tok energiyasining faqat kuchlanishi ( $U_2 \neq U_1$ )-va toki ( $I_2 \neq I_1$ ) o'zgaradigan ravishda loyihalanib ishlab chiqilgan transformatorlar amalda keng qo'llanilmoqda (bunday holda o'zgaruvchan tokning fazalar soni, chastotasi va vaqt bo'yicha o'zgarish egriligi o'zgarmaydi).

O'zbekiston Respublikasining katta quvvatli elektr stansiyalarida kuchlanishni oshiruvchi (110, 220 va 500 kV), markaziy elektr podstansiyalarida esa kuchlanishni pasaytiruvchi katta quvvatli transformatorlar ishlatiladi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarining ayrimlarida (masalan, Rossiya va Ukrainada):a) quvvati 800 MW bo'lgan generator bilan bir blokda ishlash uchun quvvati 1000 MV·A transformatorlar foydalilanildi; b) quvvati 1250 MV·A bo'lgan transformatorlar ishlab chiqarish o'zlashtirilgan; d) kuchlanishi 500 kV bo'lgan bir fazali transformatorlar guruhining maksimal quvvati 1600 MV·A ni, 750 kV kuchlanishlisi esa 1250 MV·A ni tashkil qiladi; e) kuchlanishi 1150 kV bo'lgan katta quvvatli transformatorlar o'zlashtirilgan.

*Sohaviy kuch transformatorlari* elektr transportida (temir yo'l metro va shahar elektr transporti ta'minotida), elektr pechlarida (masalan, Bekobod metallurgiya kombinatida); *maxsus magsudli transformatorlar* esa elektr yoyi vositasida payvandlash, to'g'rilaqich, aloqa, avtomatika va hisoblash texnikasi qurilmalarida (buriluvchi transformatorlar – elektr signalini funksional, ya'ni shakli sinusoidal bo'lgan signalga o'zgartirishda), radiotexnikada va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

***Transformatorlarning elektr energetika tizimsida va xo'jalik turlarining boshqa sohalarida tutgan o'rni.*** Elektr stansiyalaridan iste'molchilarga elektr energiyani uzatishdagi energiya isroflari va uzatish liniyasini qurish uchun sarflanadigan rangli metalllar (alyuminiy va boshqalar) miqdori liniya simlaridan o'tadigan tok kuchiga bog'liq bo'ladi.

Elektr energiyaning ma'lum quvvati ( $S=\sqrt{3} U \cdot I$ ) ni iste'molchiga uzatishda transformator yordamida kuchlanish U qanchaga oshirilsa, tok kuchi I shuncha marta kamayadi. Bunda hosil bo'ladigan afzalliklar quyidagilardan iborat:

1) liniya uchun ko'ndalang kesim yuzasi kichik bo'lgan sim tanlash mumkin bo'lib, elektr uzatish liniyasini qurishda rangli metalllar tejaladi;

2) liniyadagi quvvat isroflari ( $P'=3I^2R_L$ ) kamayishi tufayli iste'molchilarga elektr uzatish liniyasi orqali yetkazib beriladigan aktiv quvvat oshadi.

Elektr stansiyalaridagi sinxron generatorlar kuchlanishining kattaliklari uzoq masofada joylashgan elektr energiya iste'molchilariga elektr energiyani tejamlı uzatish uchun ancha kamlik qiladi. Elektr uzatish liniyadagi energiya isroflarini keskin kamaytirish uchun uzatilayotgan elektr energiyaning kuchlanishini ancha oshirish zarur bo'ladi. Masalan, Toshkent, Sirdaryo va Yangi Angren issiqlik elektr stansiya (IES)larida o'matilgan kuch transformatorlarining ayrimlari uzatilayotgan elektr energiyaning kuchlanishini 20 kV dan 500 kV ga, ya'ni 25 marta oshirib beradi. Natijada, liniya siinlaridagi energiya isroflari transformatorsiz uzatilganiga nisbatan  $25^2=625$  marta kamayadi, ya'ni katta iqtisodiy samaraga erishiladi.

Umumiy maqsadli kuch transformatorlari, asosan elektr energiyani uzatish va taqsimlash tizimlarida ishlataladi. Har qaysi elektr stansiyasida kuchlanishni oshiruvchi katta quvvatli transformatorlar o'rnatilgan bo'ladi.


Elektr uzatish liniyasi uzoq masofali va uzatilayotgan quvvat qancha katta bo'lsa, texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan kuchlanish shuncha yuqori bo'ladi. *Masalan*, taxminan 103 MW quvvatni 1000 km masofaga uzatish uchun deyarli 500 kV kuchlanish zarur bo'ladi.

O'zgaruvchan tok iste'molchilarining ko'pchiligi 220, 380 va 660V kuchlanishlarda ishlaydi, ayrim sohalarda esa yuqori kuchlanishli o'zgaruvchan tok iste'molchilari ham mavjud, masalan, nasos stansiyalarda o'rnatilgan suv nasoslarini yuritadigan sinxron elektr motorlari 10 kV kuchlanishda; metallurgiyada qo'llaniladigan katta quvvatli fazalar rotorli asinxron elektr motorlari 6 kV, shu sohada ishlatiladigan yirik sinxron elektr motorlari esa 6 va 10 kV kuchlanishlarda; elektrlashtirilgan temir yo'l transportida qo'llaniladigan elektr motorlari 3,3 kV kuchlanishda ishlaydi. Shuning uchun elektr uzatish liniyasining yuqori kuchlanishi markaziy va mintaqaviy podstansiyalarda hamda elektr energiya iste'molchilariga yaqin joyda o'rnatilgan katta quvvatli transformatorlar orqali ular uchun zarur bo'lgan kuchlanish qiymatiga qadar pasaytiriladi. Shu xususda 1-rasmida, konstruksiyasi kuchlanish klassi 35 kV, quvvati esa 1000+6300 kV·A ga mos keladigan pasaytiruvchi kuch transformatori ko'rsatilgan.

Elektr stansiyasidan iste'molchilarga elektr energiyani uzatish jarayoni besh-olti bosqichda ikki va uch chulg'amli katta quvvatli transformatorlar va avotransformatorlar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun kuch transformatorlari va avotransformatorlarining soni hamda ularning quvvati elektr energiyani uzatish masofasiga qarab elektr stansiyalaridagi elektr generatorlarining soni va o'rnatilgan quvvatiga nisbatan olti martaga qadar ko'p bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida kuch transformatorlari hamda maxsus transformatorlarning ayrimlari asosan Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan: Chirchiq transformatorsozlik zavodida («Transformator» OAJ), «ELUS» ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi va «Aziyaelektroenergiya» ilmiy-ishlab chiqarish tashkilotlarida ishlab chiqarilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, Toshkent shahrida kuch

transformatorlarini ta'mirlaydigan korxonalardan «Energota'mir» ixtisoslashtirilgan ta'mirlash ishlab chiqarish va «Rotor» ta'mirlash korxonalarini ham faoliyat ko'rsatmoqda.



**1-rasm. Kuchlanish klassi 35 KV quvvati 1000÷6300 kVA konstruksiyasiga mos keladigan pasaytiruvchi kuch transformatori:**

1 – bak; 2 – moy uchun ventil; 3 – zaminlash uchun qistirma; 4 – termosifonli filtr; 5 – radiotor; 6 – kuchlanishni rostlash qayta ulagichi; 7 – kengaytirgich; 8 – moy ko'rsatkich; 9 – havo quritgich; 10 – chiqaruvchi (saqlovchi) quvqur; 11 – gaz relesi; 12 –yuqori kuchlanishli (YUK) chulg'am uchun o'tish izolyatori; 13 – qayta ulagich dastagi; 14 – past kuchlanishli (PK) chulg'amga oid o'tish izolyatori; 15 – transformatorni ko'tarish uchun ilgich; 16 – PK chulg'amni o'tish izolyatori bilan bog'lovchi o'tkazgich; 17 – magnit o'tkazgich; 18 – YUK chulg'amni o'tish izolyatori bilan bog'lovchi o'tkazgich; 19 – yuqorigi va pastki yarmo balkalari; 20 – YUK chulg'am rostlash tarmog'ining simlari; 21 – YUK chulg'am (uning ichida PK chulg'am); 22 – aravacha g'ildiragi.

**Transformatorlarning tasnifi.** Bajaradigan vazifasiga ko'ra transformatorlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) *kuch transformatorlari*; 2) *maxsus transformatorlar*. Kuch transformatorlari o'z navbatida: umumiy maqsadli va sohaviy turlarga bo'linadi.

Elektr energiyani tejamlı uzatish va iste'molchilarga taqsimlash tizimsi tarkibining asosiy qismini umumiy maqsadli uch fazali ikki va uch chulg'amli kuch transformatorlari hamda avotransformatorlari

hosil qiladi. O'ta yuqori va yuqori kuchlanishli katta quvvatli transformatorlarni transportda tashish va ularni ishlatishdagi qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda, uch fazali ikki chulg'amli transformatorlar o'rniga teng quvvatli bir fazali ikki chulg'amli kuch transformatorlarini ma'lum sxema bo'yicha ulab ishlatiladigan *guruhli transformatorlar* ham elektr energiyani tejamli uzatish tizimsiga kiradi.

Elektr energiyani uzatish, qabul qilish hamda ishlatishga mo'ljallangan elektr tarmoqlari va uskunalarida elektr energiyani o'zgartirish (kuchlanishni oshirish yoki kamaytirish) vazifasini bajaradigan transformator ***kuch transformatori*** deyiladi. Bu toifaga quvvati 6,3 kV·A va undan katta bo'lgan uch va ko'p fazali (fazalar soni uchdan ko'p) transformatorlar hamda quvvati 5 kV·A va undan katta bo'lgan bir fazali transformatorlar kiradi.

Normal sharoitda ishlayotgan elektr tarmog'iga ulash uchun, yoxud maxsus ish sharoiti, yuklamaning xarakteri yoki ish rejimi bilan farq qilmaydigan elektr energiya iste'molchilarini bevosita ta'minlash uchun ishlab chiqarilgan transformatorlar ***umumiy maqsadli kuch transformatorlari*** deyiladi.

Fazalar soniga ko'ra transformatorlar bir, uch va ko'p fazali (sohaviy) turlarga bo'linadi.

Elektr jihatdan o'zaro ulanmagan ikki (yuqori va past kuchlanishli) chulg'am bilan ta'minlangan transformator ikki chulg'amli transformator deyiladi. Past kuchlanishli chulg'ami teng ikkiga bo'lingan kuch transformatorlarini ham ko'pincha ikki chulg'amli turkumiga kiritadi.

Agar transformator (yoki avotransformator) ning har fazasida uchta yuqori kuchlanishli (YUK), o'rta kuchlanishli (O'K) va past kuchlanishli (PK) elektr jihatdan ulanmagan (avotransformatorlarda esa YUK va O'K chulg'amlari elektr jihatdan ulangan) chulg'amlari bo'lsa, bunday holda ***uch chulg'amli*** transformator (yoki avotransformator) deyiladi.

Elektr energiyaning bir qismi birlamchi tarmoqdan ikkinchisiga chulg'amlari elektr jihatdan ulanganligi hisobiga uzatilib, boshqa qismi esa magnit maydoni orqali uzatiladigan transformatorning o'ziga xos ko'rinishi ***avotransformator*** deyiladi.

Transformator (yoki avotransformator) ning qaysi chulg‘amiga elektr energiya berilsa, uni ***birlamchi*** chulg‘am, elektr tarmog‘iga yoki iste’molchiga elektr energiya uzatilgan chulg‘am ***ikkilamchi*** chulg‘am deyiladi.

Agar transformator (yoki avotransformator) birlamchi chulg‘amining nominal kuchlanishi ikkilamchi chulg‘am nominal kuchlanishidan kichik ( $U_{1N} < U_{2N}$ ) bo‘lsa ***oshiruvchi***, katta ( $U_{1N} > U_{2N}$ ) bo‘lganida esa ***-pasaytiruvchi*** transformator (yoki avotransformator) deyiladi.

Elektr energiyani transformatorning qaysi chulg‘amiga berilishiga qarab transformatorda oshiruvchi yoki pasaytiruvchi sifatida foydalanish mumkinligi uning qaytarlik xossasidir.

***Kuch transformatorlariga qo‘yiladigan asosiy talablar.*** Elektr texnika sanoatida ishlab chiqarilayotgan kuch transformatorlari ishonchlilik, tejamlilik, chidamlilik va boshqa muhim jihatlari bilan jahon bozorida yuksak raqobatbardosh bo‘lishi zarur. Shu sababli mazkur transformatorlarga quyidagi *asosiy talablar* qo‘yiladi, ya’ni:

- a) ishlatishda ishonchli bo‘lishi;
- b) ishlab chiqarish va ishlatishda tejamli bo‘lishi;
- c) isroflar standartda belgilangan me’yordan oshmasligi;
- d) parallel ulash shartlarini qanoatlantirishi;
- e) me’yordan ortiqcha qizib ketmasligi;
- f) kuchlanishni rostlashga imkon berishi;
- g) transformatorni ishlatish jarayonida ayrim sabablarga ko‘ra sodir bo‘ladigan qisqa muddatli (izolyatsiya uchun xavfli bo‘lgan) o‘ta kuchlanishlarga va kam muddatli qisqa tutashuvlardagi transformatorning nominal tokidan ancha katta bo‘lgan toklar ta’siriga bardosh berishi zarur.

Transformatorlarning tarkibiy qismlariga (magnit o‘tkazgich, chulg‘amlar, sovitish tizimi, himoya qurilmalari va boshqalar) qo‘yiladigan qo‘srimcha talablar tegishli bandlarda keltiriladi.

I-jadvalda nominal quvvati va kuchlanishlariga bog‘liq ravishda kuch transformatorlari va avotransformatorlarining gabaritlarga ajratilishi ko‘rsatilgan.

***Transformatorning nominal kattaliklari.*** Transformatorlar standart talablariga mos holda texnik shartlar bo‘yicha tayyorlanadi va elektr energiyani o‘zgartirish bo‘yicha ma’lum vazifalarni bajarish uchun belgilanadi. Bu sharoitlardagi transformatorning ishi quyidagi

nominal kattaliklar bilan tavsiflanadi va ular elektr jihozlari kataloglarida hamda transformatorga mahkamlangan pasport taxtachada quyidagilar ko'rsatilgan bo'ladi:

1. Ikki chulg'amli transformator uchun bitta nominal to'la quvvat  $S_1=S_2 = S_N$  (uch chulg'amli transformatorlarda har qaysi chulg'am uchun alohida, ya'ni uchta quvvat) V·A yoki kV·A da ko'rsatiladi:

- a) bir fazali ikki chulg'amli transformator uchun—  $S_{1N}=U_{1N}I_{1N}$  ;
- b) uch fazali ikki chulg'amli transformator uchun—  $S_{IN}=\sqrt{3} U_{1N}I_{1N}=3U_{1N}I_{1N}$ .

Transformatorlarda FIK juda ham katta bo'lganligidan ikki chulg'amli transformatororda birlamchi ( $S_{1N}$ ) va ikkilamchi ( $S_{2N}$ ) chulg'am nominal quvvatlari taxminan bir xil bo'ladi, ya'ni  $S_{1N} \approx S_{2N}$ .

**1-jadval. Kuch transformatorlari va avotransformatorlarining gabaritlari**

Gabarit raqamlari	Kuch transformatorlari va avotransformatorlarining standartda belgilangan qatorga mos keluvchi quvvat va kuchlanishlari	
	Nominal quvvati ( $S_N$ ), kV·A	Nominal kuchlanishi ( $U_N$ ), kV
I	$S_N < 100$	$U_N \leq 35$
II	$100 \leq S_N < 1000$	$U_N \leq 35$
III	$1000 \leq S_N < 6300$	$U_N \leq 35$
IV	$S_N \geq 6300$	$U_N \leq 35$
V	$S_N < 32\ 000$	$U_N \leq 110$
VI	$32\ 000 \leq S_N < 80\ 000$	$U_N \leq 330$
VII	$80\ 000 \leq S_N < 200\ 000$	$U_N \leq 330$
VIII	$S_N \geq 200\ 000$	$U_N \geq 330$

*Nominal kuchlanish* deganda har bitta chulg'amning liniyaviy kuchlanishi tushuniladi. Birlamchi chulg'am nominal kuchlanishi  $U_{1N}=\text{const}$  bo'lganda nominal quvvatdagi ikkilamchi chulg'am kuchlanishi yuklamaning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Shu noaniqlik bo'lmasligi uchun ikkilamchi chulg'amning nominal kuchlanishi uchun uning salt ishslashdagi qiymati qabul qilinadi, ya'ni birlamchi kuchlanish nominal  $U_{1N}$  bo'lganda  $U_{2N}=U_{2(0)}$ . Transformatorning

nominal toklari deganda uning nominal quvvati  $S_1=S_2=S_N$  va kuchlanishlari ( $U_{1N}$  va  $U_{2N}$ ) bo'yicha hisoblangan birlamchi va ikkilamchi chulg'amlarning liniyaviy qiymatlari tushuniladi va passport taxtachasida ko'rsatilgan bo'ladi.

*Bulardan tashqari:* 1) nominal chastota  $f_N$ ; 2) fazalar soni  $m$ ; chulg'amlarning ulanish sxemasi va guruhi; 3) qisqa tutashuv kuchlanishi  $u_{qt.(%)}$ ; 4) transformatorni tayyorlagan zavodning nomi; transformatorning tayyorlangan yili; 5) transformatorning tipi; 6) tayyorlangan transformatorga to'g'ri keladigan standart nomeri; 7) sovitish usuli; 8) massasi va boshqa ayrim ma'lumotlar keltiriladi.

Uch fazali moyli kuch transformatorlarni hisoblash bo'yicha mazkur uslubiy qo'llanma, 5520200 – Elektr energetika, 5521300-Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari, 5140900– Kasb ta'limi (Elektr energetika) yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u kurs loyihasini, yakka tartibdagi (individual) topshiriqlarni hisoblashda foydalaniлади.

Transformatorni hisoblash sxemasi

1. Asosiy elektr kattaliklarni aniqlash:

- past kuchlanish (PK) va yuo'qori kuchlanish (YUK) chulg'amlarining liniya, faza tok va kuchlanishlari;
- chulg'amlarning sinov kuchlanishlari;
- qisqa tutashish kuchlanishlarining aktiv va reaktiv tashkil etuvchilar;

2. Transformatorning asosiy o'lchamlarini hisoblash.

- magnit tizimining konstruksiyasini va tayyorlash texnologiyasining sxemani tanlash;
- magnit tizim induksiya sini, tunukachalarning (plastinalarning) izolyatsiya turini va po'lat listlar qalinligini va markasini tanlash;
- chulg'am materialini tanlash;
- chulg'am konstruksiyalarini oldindan taxminiy tanlash;
- chulg'amning asosiy izolyatsiya oraliqlarini va konstruksiyasini tanlash;
- $U_k$ ,  $P_k$  va  $P_0$  larning berilgan qiymatini hisobga olib,  $\beta$  ning asosiy o'lchamlarini o'zaro nisbatini tanlash va transformatorning dastlabki hisobi;
- magnit tizimning dastlabki hisobi, chulg'am uzunligi (balandligini) va sterjen diametrini aniqlash.

3. PK va YUK chulg‘amlarini hisoblash:

- a) PK va YUK chulg‘am turlarini tanlash;
- b) PK chulg‘amini hisoblash;
- v) YUK chulg‘amini hisoblash.

4. Qisqa tutashish parametrlarini aniqlash:

- a) konstruksiya elementlaridagi qo‘srimcha, chulg‘amlardagi asosiy va qo‘srimacha qisqa tutashish isroflarini;
- b) qisqa tutashish kuchlanishini;
- d) chulg‘amarning mexanik kuchlarini.

5. Magnit tizimning oxirgi hisobi. Salt ishslash parametrlarini aniqlash:

- a) sterjen va yarmoning aktiv kesim yuzasi va paket o‘lchamlari;
- b) po‘latning vazni, sterjen va yarmoning vaznlari;
- d) salt ishslash isrofi;
- e) salt ishslash toki.

6. Sovitish tizimini hisoblash va issiqlik hisobi:

- a) chulg‘amlarni tekshirishga oid issiqlik hisobi;
- b) transformatorning gabarit o‘lchamlarini aniqlash. Sovitish tizimini (bakni, radiatorni (sovutgichni) hisoblash;
- d) havodan moy va chulg‘am haroratlarini oshishi;
- e) kengaytiruvchi bakning asosiy o‘lchamlari va moyning massasi.

## **Transformatorlarning asosiy elektr kattaliklarini hisoblash**

Transformatorlarni hisoblash asosiy elektr kattaliklarni aniqlashdan boshlanadi: bir faza va sterjenga to‘g‘ri kelgan quvvat, YUK va PK tomonlardagi nominal tok va kuchlanishning faza qiyimatlari.

Transformatorning bitta fazasidagi quvvat, kVA

$$S_f = S/m. \quad (1)$$

Bitta sterjendagi quvvat

$$S' = S/s, \quad (2)$$

bunda s – transformatorning aktiv sterjenlari soni; S – transformatorning nominal quvvati kVA. Uch chulg‘amli transformatorlarning nominal quvvati deganda, YUK, O‘K va PK chulg‘amlarining eng katta quvvati tushuniladi. Uch fazali transformatorlarning YUK O‘K va PK chulg‘amlarining nominal liniya toklari, A

$$I = S \cdot 10^3 / (\sqrt{3} \cdot U), \quad (3)$$

bunda S – transformatorning quvvati kVA; uch fazali transformatorlar uchun S – YUK, O‘K yoki PK chulg‘amlariga mos keluvchi quvvat, U – chulg‘amga tegishli nominal liniya kuchlanishi (V).

Bir fazali transformatorning nominal toki, A

$$I = S \cdot 10^3 / U. \quad (4)$$

Uch fazali transformatorning bitta sterjendagi faza toki, A:

Chulg‘amlar yulduz yoki zigzag ulanganda

$$I_f = I \quad (5)$$

chulg‘amlar uchburchak ulanganda

$$I_f = I / \sqrt{3}, \quad (6)$$

bunda tok I (3)bo'yicha aniqlanadi.

Uch fazali transformatorlarning faza kuchlanishi, V:  
chulg'amlar yulduz yoki zigzag ulanganda:

$$U_f = U / \sqrt{3}, \quad (7)$$

chulg'amlar uchburchak ulanganda:

$$U_f = U, \quad (8)$$

bunda U – chulg'amning nominal liniya kuchlanishi.

**Magnit tizimi yassi shaklda yig'ilgan yupqa elektrotexnik po'lat tunukalaridan iborat moy bilan sovitiladigan uch fazali ikki chulg'amli transformatorni loyihalash**

Hisobni boshlash uchun dastlabki berilgan ma'lumotlar: transformatorning to'la quvvati  $S=1000 \text{ kV}\cdot\text{A}$ ; fazalar soni  $m=3$ ; chastotasi  $f=50 \text{ Gs}$ . Nominal kuchlanishlari: YUK  $U_2=10000 \pm (2 \times 2,5\%) \text{ V}$ ; PK  $U_1=400 \text{ V}$ ; sxema va ularish guruhlari  $\Delta/Y_0-11$ . Kuchlanishi rostlash usuli – PBV ya'ni transformatorni elektr tarmog'idan uzib, rostlagichning holatini o'zgartirgandan keyin, yana elektr tarmog'iga ularash yo'li bilan bajariladigan rostlash usuli; ish holati- davomli.

**I<sub>M</sub> variant.** Transformator chulg'amlari mis simlardan yasalgan. Transformator 11677-85 Davlat Standarti (andozasi) ga mos keladi. Transformatorning parametrlari: qisqa tutashish kuchlanishi  $u_q=5,5\%$ ; qisqa tutashish quvvati  $P_q=12200 \text{ W}$ ; salt ishslash quvvati  $P_0=2100 \text{ W}$ ; salt ishslash toki  $i_0=1,4\%$ .

**II<sub>A</sub> variant.** Transformator chulg'amlari alyuminiy simlardan yasalgan. Transformator 11677-85 Davlat Standarti (andozasi) ga to'g'ri keladi va yuqoridagi kattaliklar bu variant uchun ham berilgan hisoblanadi.

## **I. Asosiy elektr kattaliklari va izolyatsion oraliqlarni hisoblash**

### **1.1. Bir fazadagi sterjenning quvvati:**

$$S_f = S' = /3 = 1000 / 3 = 333,33 \text{ kV} \cdot \text{A}.$$

1.2. Tomonlardagi nominal (liniya) toklari:

$$\text{YUK } I_2 = S \cdot 10^3 / (\sqrt{3} \cdot U_2) = 1000 \cdot 10^3 / (\sqrt{3} \cdot 10000) = 57,7 \text{ A};$$

$$\text{PK } I_1 = S \cdot 10^3 / (\sqrt{3} \cdot U_1) = 1000 \cdot 10^3 / (\sqrt{3} \cdot 400) = 1443,4 \text{ A}.$$

1.3. PK va YUK chulg‘amlaridagi faza toklari va kuchlanishlari ulanish guruhlari  $\Delta/Y_0-11$  bo‘lganda:

$$I_{\Omega} = I_2 / \sqrt{3} = 57,7 / 1,732 = 33,3 \text{ A}; \quad U_{\Omega} = U_2 = 10000 = 10000 \text{ V};$$

$$I_{fl} = I_1 = 1443,4 = 1443,4 \text{ A}; \quad U_{fl} = U_1 / \sqrt{3} = 400 / 1,732 = 230,95 \text{ V};$$

chulg‘amlarning sinov kuchlanishlarini 9- ilovadan topamiz: YUK uchun  $U_{s2}=35 \text{ kV}$ ; PK uchun  $U_{s1}=5 \text{ kV}$ .

1.4. YUK chulg‘amining  $U_{s2}=35 \text{ kV}$  li sinov kuchlanishi uchun 11-ilovadan izolyatsiya oraliqlarini topamiz:  $a_{12}=20 \text{ mm}$ ;  $l_0=50 \text{ mm}$ ;  $a_{22}=18 \text{ mm}$ ; PK chulg‘amning sinov kuchlanishi  $U_{s1}=5 \text{ kV}$  uchun 10-ilovadan  $a_{01}=15 \text{ mm}$ .

### **Hisoblash uchun dastlabki berilgan qiymatni aniqlash *I<sub>M</sub>* variant**

1.5. Ikkitga chulg‘am orasining keltirilgan kengligi

$$(a_1 + a_2) / 3 = k \sqrt[4]{S'} \cdot 0,01 = 0,51 \sqrt[4]{333,3} \cdot 15 = 0,0218 \text{ m},$$

bunda  $k=0,51$  koefitsient 4- ilovadan olinadi.

1.6. PK yoki YUK chulg‘amining radius yo‘nalishi bo‘yicha o‘lchami

$$a_p = a_{12} + (a_1 + a_2) / 3 = 0,020 + 0,0218 = 0,0418 \text{ m}.$$

1.7. Qisqa tutashuv kuchlanishining aktiv tashkili etuvchisi

$$u_a = P_q / (10S) = 12200 / 10 \cdot 1000 = 1,22\%.$$

### 1.8. Qisqa tutashuv kuchlanishining reaktiv tashkil etuvchisi

$$u_2 = \sqrt{u_k^2 - u_a^2} = \sqrt{5,5^2 - 1,22^2} = 5,36\%$$

1.9. Kuch transformatorlarini loyihalashda asosiy va birinchi darajali vazifa, uning konstruktiv sxe:nasini tanlashdan iborat. Zamonaviy hamma transformatorlar zavodlarda yassi magnit o'tkazgichli qilib ishlab chiqarilishi mumkin. Bunday magnit o'tkazgichlari (1-rasm) elektrotexnik po'latni tejaydi va salt ishlash tokini 10% gacha kamaytiradi va ular 1000–6300 kVA quvvatli transformatorlarida qo'llaniladi. Shuning uchun biz ham uch fazali sterjenli, yassi shaklda yig'ilgan yupqa elektrotexnik po'lat tunukalaridan iborat, chekkalari qiya tutashgan va o'rtasi to'g'ri tutashgan magnit o'tkazgichini tanlaymiz. O'zaklarni shisha tolali, yarmoli halqa esa po'lat balkalar yordamida birlashtirish amalga oshiriladi. Uyurma toklar tufayli hosil bo'ladigan energiya isroflarini kamaytirish maqsadida transformatorning magnit o'tkazgichi uchun magnit xossalari yaxshilangan 0,35 mm qalinlikdagi 3404 markali sovuq holatda jo'velangan o'rama po'latli materialdan foydalanamiz. O'zakning induksiyasi  $B_s=1,6$  Tl (2-ilova); to'ldirish koeffitsienti  $k_{ik}=0,925$  (3-ilova); issiqlikka chidamlilik izolyatsiyasini qoplash koeffitsienti  $k_z=0,97$  (1-ilova). Po'lat bilan to'ldirish koeffitsienti:  $k_s=k_{ik}k_z=0,925 \cdot 0,97=0,90$ . Yarmo ko'p pog'onali, pog'onalar soni 6, yarmoning kuchaytirish koeffitsienti  $k_{ya}=1,015$ . Yarmodagi induksiya  $B_{ya}=B_s/k_{ya}=1,60/1,015=1,58$  Tl. Magnit o'tkazgi-chini chekkalari egri tutashgan tirkishlari soni 4 ta, to'g'ri tutashgan esa 3 ta. To'g'ri tutashagan tirkishdagi induksiya  $B''_s=B_s=1,60$  Tl, qiya tutashganda  $B'_s=B_s/\sqrt{2}=1,60/\sqrt{2}=1,146$  Tl.  $k_p=0,95$  deb qabul qilamiz.

7-ilovadan chulg'AMDAGI asosiy isrofning qisqa tutashuv isrofiga nisbatini e'tiborga oluvchi koeffitsient  $k_d=0,93$  va 5-6 ilovalardan mis chulg'amlar uchun o'zgarmas koeffitsientlarni  $a=1,38$  va  $b=0,26$  kattalashadi.  $\beta$  faqatgina transformatorning o'lchamlariga ta'sir qilib qolmasdan, balki transformator aktiv qismi massalariga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun ham  $\beta=1,3-3,7$  oraliqda o'zgaradi (8-ilova).

Po'latning solishtirma qarshiliklari 30- ilovadan tanlanadi:

$$p_s=1,353 \text{ W/kg}; p_{ya}=1,242 \text{ W/kg}.$$

1.10. Transformatörning asosiy koefitsientini topamız:

$$A = 0,5074 \sqrt{\frac{S^1 a_p k_p}{f u_p B_s^2 k_s^2}} = 0,5074 \sqrt{\frac{333,33 \cdot 0,0418 \cdot 0,95}{50 \cdot 5,36 \cdot 1,60^2 \cdot 0,90^2}} = 0,199.$$

$$A_1 = 5,633 \cdot 10^4 k_s A^3 a = 5,633 \cdot 0,9 \cdot 0,00874 \cdot 1,48 = 655,6102 \text{ kg.}$$

$$A_2 = 3,605 \cdot 10^4 k_s A^2 l_0 = 3,605 \cdot 0,9 \cdot 0,04242 \cdot 0,05 = 68,82068 \text{ kg.}$$

$$B_1 = 2,4 \cdot 10^4 k_s k_{ya} A^3 (a + b + e) = 2,4 \cdot 0,9 \cdot 1,015 \cdot 0,00874 \cdot 2,29 = 438,6893 \text{ kg.}$$

$$B_2 = 2,4 \cdot 10^4 k_s k_{ya} A^2 (a_{12} + a_{22}) = 2,4 \cdot 0,9 \cdot 1,015 \cdot 0,4242 \cdot 0,038 = 35,34309 \text{ kg.}$$

$$S_1 = K_0 \frac{S_a^2}{k_d k_s^2 B_s^2 u_a A^2} = \frac{1,2 \cdot 1000 \cdot 2,1904}{0,93 \cdot 0,81 \cdot 2,56 \cdot 1,22 \cdot 0,04242} = 263,3515.$$

$$M = 0,244 \cdot 10^{-6} \cdot k_{kz}^2 \cdot k_d \cdot k_p \cdot \frac{F_k}{aA} = 0,244x$$

$$x \frac{1457,805 \cdot 0,93 \cdot 0,95 \cdot 12200}{1,48 \cdot 0,20597} = 12,57747 \text{ MPa}$$

$$k_{kz} = 1,41 \frac{100}{u_k} (1 + e^{-\pi u_a / u_p}) = \frac{1,41 \cdot 100 \cdot 1,489338}{5,5} = 38,18121.$$

$$B = \frac{2}{3} \cdot \frac{A_2 + B_2}{B_1} = \frac{2}{3} \cdot \frac{68,82068 + 35,34309}{438,6893} = 0,158295.$$

$$k_{oq} = 2,36 \text{ (44- ilovaga qarang)}$$

$$C = A_1 / (3B_1) = 655,610206 / (3 \cdot 438,6893) = 0,498158.$$

$$k_{ir} = 1,06.$$

$$D = k_{o,s} \cdot k_{i,r} \frac{2}{3} \frac{C_1}{B_1} = \frac{2 \cdot 2,36 \cdot 1,06 \cdot 263,3515}{3 \cdot 438,6893} = 1,001164$$

$$x^5 + 0,15829545 \cdot x^4 - 0,498158 \cdot x - 1,001164 = 0$$

$$x_1 \leq 4,5 \cdot 10^6 \sqrt[3]{2,4 \cdot 10^{-12} C_1 / (k_o \cdot P_k)} = 1,062098;$$

$$B_J = x_J^4 = 1,062098 = 1,272502;$$

$$x_\sigma \leq \sqrt[3]{60/I} = \sqrt[3]{60/12,57747} = 1,683395; \quad \beta_\sigma = 1,683395^4 = 8,030522;$$

$$G_y = 0,492 \cdot 10^{-2} \cdot k_s^2 \cdot k_{ya} \cdot A^3 \cdot x^3 = 0,492 \cdot 0,9 \cdot 1,015 \cdot 0,00874 x^3 = 39,27131 x^3$$

$$P_s = 0,785 \cdot k_s \cdot A^2 \cdot x^2 = 0,785 \cdot 0,9 \cdot 0,4242 \cdot x^2 = 0,029972 x^2;$$

$$P'_z = P_s = 0,029972 x^2;$$

$$P'_z = P_s \cdot 1,14 = 0,02997183 \cdot 1,414214 x^2 = 0,042387 x^2;$$

$$P_0 = k_{p,d} p_s (G_s + 0,5 k_{p,y} G_y) + k_{p,d} p_{ya} (G_{ya} - 6 G_y + 0,5 k_{p,y} G_y) = 1,15 \cdot 1,295 x$$

$$x (G_s + 0,5 \cdot 10,18 \cdot G_y) + 1,15 \cdot 1,251 \cdot (G_{ya} - 6 G_y + 0,5 \cdot 10,18 G_y) = 1,48925 G_s + \\ + 1,43865 G_{ya} + 6,271111 G_y;$$

$$Q_0 = k'_{t,d} k''_{t,d} q_s (G_c + 0,5 k_{t,y} k_{t,pl} G_y) + k'_{t,d} k''_{t,d} q_{ya} (G_{ya} - 6 G_y + 0,5 k_{t,y} k_{t,pl} G_y) + \\ + k''_{t,d} \sum q_3 n_3 P_3 = 1,2 \cdot 1,07 \cdot 1,775 (G_c + 0,5 \cdot 42,45 \cdot 1,19 \cdot G_y) + 1,2 \cdot 1,07 \cdot 1,675 \\ (G_{ya} - 6 \cdot G_y + 0,5 \cdot 42,45 \cdot 1,19 \cdot G_y) + 1,07 \cdot 3200 \cdot 4 \cdot 0,042387 x^2 + 1,07 \cdot 2500 x$$

$$x \cdot 3 \cdot 0,029972 x^2 = 2,2791 G_s + 2,1507 G_{ya} + 98,98258 G_y + 2985,766 x^2.$$

$$B_y = 0,87 (B_s + B_{ya}) / 2 = 0,87 \cdot (1,6 + 1,58) / 2 = 1,382.$$

$$P_s = 0,785 \cdot k_s \cdot A^2 \cdot x^2 = 0,785 \cdot 0,9 \cdot 0,03636 \cdot x^2 = 0,02569 x^2.$$

$$P_z = P_s \cdot 1,41 = 0,0256896 \cdot 1,414214 \cdot x^2 = 0,036331x^2.$$

### Koeffitsient $\beta$ ni nominal optimal qiymatini aniqlash

$\beta$	1,2	1,4	1,6	1,8	2	2,2	2,4	2,6	2,8
$x^{=1}/\beta$	1,046635	1,087757	1,124683	1,158292	1,189207	1,217883	1,244666	1,269823	1,293569
$x^{=1}, \beta^1$	1,095445	1,183216	1,264911	1,341641	1,414214	1,48324	1,549193	1,612452	1,67332
$x^{=4/\sqrt{\beta^3}}$	1,146531	1,287052	1,422624	1,554012	1,681793	1,806413	1,928228	2,047529	2,164554
$\frac{A_1}{x} = \frac{634,4221}{x}$	626,398	602,7174	582,9291	566,0145	551,3003	538,3194	526,7359	516,3003	506,8229
$A_2x^2 = 67,3298x^2$	75,38927	81,42972	87,05203	92,33263	97,32713	102,0776	106,6165	110,97	115,159
$G_0 = \frac{A_1}{x} + A_2x^2$	701,7873	684,1471	669,9811	658,3472	648,6274	640,397	633,3524	627,2703	621,9819
$B_1x^3 = 428,694x^3$	502,971	564,6158	624,0897	681,7284	737,7845	792,4539	845,893	898,2289	949,5668
$B_2x^4 = 34,91811x^4$	38,71642	41,81851	44,70587	47,41773	49,98268	52,42228	54,75328	56,98902	59,1403
$G_0 = B_1x^3 + B_2x^4$	541,6874	606,4343	668,7955	729,1461	787,7671	844,8762	900,6463	955,2179	1008,707
$G_0 = G_1 + G_2$	1243,475	1290,581	1338,777	1387,493	1436,395	1485,273	1533,999	1582,488	1630,689
$G_0 = 38,37654x^4$	45,02579	50,54421	55,86829	61,02809	66,04621	70,9402	75,72405	80,40914	85,00489
$1,48925 G_0$	1045,137	1018,866	997,7694	980,4435	965,9684	953,7112	943,2201	934,1623	926,2865
$1,43865 G_0$	779,2986	872,4467	962,1627	1048,986	1133,321	1215,481	1295,715	1374,224	1451,176
$6,271111 G_0$	282,3617	316,9683	350,3562	382,7139	414,1831	444,8739	474,8739	504,2546	533,0751
$P_0 = 1,48925$	2106,797	2208,281	2310,288	2412,143	2513,473	2614,066	2713,809	2812,641	2910,538
$G_0 = 1,43865$	2106,797	2208,281	2310,288	2412,143	2513,473	2614,066	2713,809	2812,641	2910,538
$P_0 = 0,029323x^2$	0,032832	0,035463	0,037912	0,040211	0,042387	0,044455	0,046432	0,048328	0,050152
$2,2791 G_0$	1599,443	1559,24	1526,954	1500,439	1478,287	1459,529	1443,473	1429,612	1417,559
$2,1507 G_0$	1165,007	1304,258	1438,379	1568,175	1694,251	1817,075	1937,02	2054,387	2169,426
$98,98258 G_0$	4456,769	5002,996	5529,987	6040,718	6537,424	7021,844	7495,362	7959,104	8414,003
$2921,085 x^2$	3270,743	3532,806	3776,729	4005,826	4222,511	4428,607	4625,529	4814,403	4996,142
$Q_0 =$	10491,96	11399,3	12272,05	13115,16	13932,47	14727,05	15501,38	16257,51	16997,13
$Q_0 = \frac{Q_0}{10^5}, \%$	1,049196	1,13993	1,227205	1,311516	1,393247	1,472705	1,550138	1,625751	1,699713
$G_0 = \frac{C}{x^2}$	240,4059	222,5726	208,1976	196,2906	186,2176	177,5515	169,9926	163,3237	157,3826
$1,03 G_0$	247,6181	229,2498	214,4436	202,1793	191,8041	182,8781	175,0924	168,2234	162,1041
$G_0 = 1,03 \cdot 1,1 G_0$	255,0466	236,1273	220,8769	208,2447	197,5583	188,3644	180,3452	173,2701	166,9672
$k_0 G_0 = 2,36 G_0$	601,91	557,2604	521,2694	491,4575	466,2375	444,54	425,6147	408,9174	394,0426
$C_{ab} G_0 + 2,36 G_0$	1845,385	1847,842	1860,046	1878,951	1902,632	1929,813	1959,613	1991,406	2024,732
$J = \frac{0,91 \cdot 18000}{2,4G_0} \cdot 10^4$	4,434485	4,608715	4,765164	4,907564	5,038548	5,160046	5,273521	5,380111	5,480717
$\alpha_2 = Mx^3 - 14,14 x^3$	14,42047	16,18786	17,89301	19,54554	21,1527	22,72011	24,25224	25,75274	27,22453
$d = A_0 = 0,2243$	0,215574	0,224044	0,231649	0,238572	0,244939	0,250845	0,256362	0,261543	0,266434
$d_{12} = d - 1,40 d$	0,319049	0,331585	0,342841	0,353086	0,36251	0,371251	0,379416	0,387084	0,394323
$F = nd_{12}/\beta$	0,834845	0,743697	0,672825	0,615939	0,56914	0,529877	0,496402	0,467479	0,442205
$C = d_{12} + a_{12} + 2 \cdot a_2 + a_2$	0,443279	0,459202	0,4735	0,486515	0,498485	0,509589	0,51996	0,529702	0,538896

1.11.  $d=0,24\text{m}$  o‘zakning diametrini 3- ilovadan topamiz.

1.12.  $x=d/A=0,24/0,199=1,203$ ;  $x^2=1,448$ ;  $x^4=2,097$ .

1.13.  $\beta=x^4=1,203^4=2,097$ .

1.14. O‘zakning aktiv kesim yuzasi:

$$P_s = 0,785k_s A^2 x^2 = 0,785 \cdot 0,90 \cdot 0,199^2 \cdot x^2 = 0,02802 \cdot x^2 = 0,02802 \cdot 1,448 = \\ = 0,0406 \text{ m}^2.$$

1.15. Chulg‘amning o‘rtacha diametri:

$$d_{12}=aAx=1,38 \cdot 0,199 \cdot 1,203=0,331 \text{ m.}$$

1.16. Chulg‘amlar uzunligi:

$$l=\pi d_{12}/\beta=3,14 \cdot 0,331/2,097=0,496 \text{ m.}$$

1.17. Sterjen balandligi:

$$l_s=l+2 l_0=0,496+2 \cdot 0,050=0,596 \text{ m.}$$

1.18. Sterjen o‘qlari orasidagi masofa:

$$C=d_{12}+a_{12}+b \cdot d+a_{22}=0,331+0,020+0,26 \cdot 0,24+0,018=0,432 \text{ m.}$$

1.19. Bitta o‘ram EYUKi:

$$U_o=4,44 f P_s B_s=222 \cdot 0,0406 \cdot 1,60=14,41 \text{ B.}$$

## *II<sub>A</sub> variant*

1.5. Ikkita chulg‘am orasidagi keltirilgan masofa

$$(a_1+a_2)/3=1,25k\sqrt[4]{S'} \cdot 10^{-2}=0,51 \cdot 1,25\sqrt[4]{333,3} \cdot 10^{-2}=0,0272 \text{ m};$$

bunda  $k=0,51$  koefitsient 4-ilovadan olinadi.

1.6. PK yoki YUK chulg‘amining radius yo‘nalishi bo‘yicha o‘lchami

$$a_p = a_{12} + (a_1 + a_2)/3 = 0,020 + 0,0272 = 0,0472 \text{ m.}$$

(11- ilovaga qarang).

### 1.7. Qisqa tutashuv kuchlanishining aktiv tashkil etuvchisi

$$u_a = P_q / (10S) = 12200 / (10 \cdot 1000) = 1,22\%.$$

### 1.8. Qisqa tutashuv kuchlanishining reaktiv tashkil etuvchisi

$$u_p = \sqrt{u_k^2 - u_a^2} = \sqrt{5,5^2 - 1,22^2} = 5,36\%.$$

1.9. Kuch transformatorlarini loyihalashda asosiy va birinchi darajali vazifa, uning konstruktiv sxemasini tanlashdan iborat. Zamonaviy hamma transformator zavodlarida yassi magnit o'tkazgichlari ishlab chiqarilishi mumkin. Bunday magnit o'tkazgichlari (1.1-rasm) elektrotexnik po'latni tejaydi va salt ishslash tokini 10% gacha kamaytiradi va ular 1000-6300 kVA quvvatli transformatorlarida qo'llaniladi. Shuning uchun biz ham uch fazali sterjenli, yassi shaklda yig'ilgan yupqa elektrotexnik po'lat tunukalaridan iborat; chekkalari qiya tutashgan va o'rtasi to'g'ri tutashgan magnit o'tkazgichini tanlaymiz. O'zaklarni shisha tola, yarmo esa po'lat balkalar yordamida birlashtirish amalga oshiriladi. Uyurma toklar tufayli hosil bo'ladigan energiya isroflarini kamaytirish maqsadida transformatorning magnit o'tkazgichi uchun magnit xossalari yaxshilangan 0,35 mm qalinlikdagi 3404 markali sovuq holatda jo'valangan o'rama po'latli materialdan foydalananamiz. O'zakning induksiyasi  $B_s=1,6$  Tl (2-ilova); to'ldirish koefitsienti  $k_{tk}=0,928$  (3-ilova); issiqlikka chidamlilik izolyatsiyasini qoplash koefitsienti  $k_z=0,97$  (1-ilova)  $d=0,22$ . Po'lat bilan to'ldirish koefitsienti:  $k_s=k_{tk}k_z=0,928 \cdot 0,97=0,9$ . Yarmo ko'p pog'onali, pog'onalar soni 6, yarmoning kuchaytirish koefitsienti  $k_{ya}=1,1-1,02$  oraliqda bo'ladi  $k_{ya}=1,02$ . Yarmodagi induksiya  $B_{ya}=B_s/k_{ya}=1,60/1,02=1,58$  Tl. O'zakning chekkalari egri tutashgan magnit o'tkazgichining bo'shliqlari soni 4 ta, o'rtasi to'g'riniki esa 3 ta. Bo'shliqdagi induksiya o'rtasi to'g'riniki  $B''_z=B_s=1,6$  Tl,

chekkalari egri tutashgan  $B'_z = B_c / \sqrt{2} = 1,6 / \sqrt{2} = 1,13$  Tl.  $k_p = 0,95$  deb qabul qilamiz.

7-ilovadan chulg'amdagi asosiy isrofnini qisqa tutashuv isrofiga nisbatini e'tiborga oluvchi koefitsienti  $k_d = 0,93$  va 5–6 ilovalardan alyuminiy chulg'amlar uchun o'zgarmas koefitsientlarni  $a = 1,38 \cdot 1,06 = 1,46$  va  $b = 1,25 \cdot 0,26 = 0,33$ .  $\beta$ -chulg'amning diametri va balandligi orasidagi nisbatni beradi.  $\beta$  ning qiymati qancha katta bo'lsa, transformator shuncha eniga qarab kattalashadi,  $\beta$  ning qiymati qanchalik kichik bo'lsa, transformator bo'yiga qarab kattalashadi.  $\beta$  faqatgina transformatorning o'lchamlariga ta'sir qilib qolmasdan, balki transformator aktiv qismi massalariga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun ham  $\beta = 1,2 - 1,6$  (8-ilovadan tanlanadi).

#### 1.10. Transformatorning asosiy koefitsientini topamiz:

$$A = 0,5074 \sqrt{\frac{S^1 a_p k}{f u_p B_s^2 k_s^2}} = 0,5074 \sqrt{\frac{333,33 \cdot 0,0472 \cdot 0,95}{50 \cdot 36 \cdot 1,60^2 \cdot 0,9^2}} = 0,205;$$

$$A_1 = 5,633 \cdot 10^4 k_s A^3 a = 5,633 \cdot 0,9 \cdot 0,00846 \cdot 1,48 = 634,4221 \text{ kg};$$

$$A_2 = 3,6 \cdot 10^4 k_s A^2 l_0 = 3,605 \cdot 0,9 \cdot 0,04150 \cdot 0,05 = 67,3298 \text{ kg};$$

$$B_1 = 2,4 \cdot 10^4 k_s k_{ya} A^3 (a + b + e) = 2,4 \cdot 0,9 \cdot 1,02 \cdot 0,00846 \cdot 2,29 = 428,694;$$

$$B_2 = 2,4 \cdot 10^4 k_s k_{ya} A^2 (a_{12} + a_{22}) = 2,4 \cdot 0,9 \cdot 1,02 \cdot 0,04150 \cdot 0,038 = 34,91811 \text{ kg};$$

$$\begin{aligned} S_1 &= K_0 \frac{S a^2}{k_d k_s^2 B_s^2 u_a A^2} = 269,1828 = \\ &= \frac{1,2 \cdot 1000 \cdot 2,1904}{0,93 \cdot 0,81 \cdot 2,56 \cdot 1,22 \cdot 0,04150} = 269,1828 \text{ kg} \end{aligned}$$

$$M = 0,156 \cdot 10^{-6} \cdot k_{kz}^2 \cdot k_d \cdot k_d \cdot k_p \cdot \frac{P_k}{aA} = 0,155x$$

$$x \frac{1487,754 \cdot 0,93 \cdot 0,95 \cdot 12200}{1,48 \cdot 0,20532} = 8,296 \text{ MPa};$$

$$k_{kz}=1,14 \frac{100}{u_k} \left( 1 + e^{-\pi u_a / \text{up}} \right) = \frac{1,41 \cdot 100 \cdot 1,504559}{5,5} = 38,57141;$$

$$B = \frac{2}{3} \cdot \frac{A_2 + B_2}{B_1} = \frac{2}{3} \cdot \frac{67,3298 + 34,91811}{426,694} = 0,159007; \\ k_{o,s} = 2,36;$$

$$S = A_1 / (3B_1) = 634,422063 / (3 \cdot 428,694) = 0,493298;$$

$$k_{l,p} = 1,06;$$

$$D = k_{o,c} k_{i,r} \frac{2}{3} \cdot \frac{C_1}{B_1} = \frac{2 \cdot 269,1828}{3 \cdot 428,694} \cdot 2,36 \cdot 1,06 = 1,047193;$$

$$x^5 + 0,15900683x^4 - 0,493298x - 1,047193 = 0;$$

$$x_j \leq 2,7 \cdot 10^6 \sqrt{12,75 \cdot 10^{-12} C_1 / (k_d \cdot P_k)} = 1,484982;$$

$$\beta_j = x_j^4 = 1,484982^4 = 4,86278;$$

$$x_o \leq \sqrt[3]{25/M} = \sqrt[3]{25/8,296894} = 1,444358; \beta_o = 1,444358^4 = 4,352105;$$

$$G_y = 0,492 \cdot 10^4 \cdot k_s^2 \cdot k_{ya} \cdot A^3 \cdot x^3 = 0,492 \cdot 0,9 \cdot 1,025 \cdot 0,00846 x^3 = 38,37654 x^3;$$

$$P_s = 0,785 \cdot K_s \cdot A^2 \cdot x^2 = 0,785 \cdot 0,9 \cdot 0,04150 x^2 = 0,029323 x^2;$$

$$P_z'' = P_s = 0,029323;$$

$$P_0 = k_{p,d} p_s (G_s + 0,5 k_{p,y} G_y) + k_{p,d} p_{ya} (G_{ya} - 6G_y + 0,5 k_{p,y} G_y) = 1,15 \cdot 1,295 x \\ x (G_s + 0,5 \cdot 10,18 \cdot G_y) + 1,15 \cdot 1,251 \cdot (G_{ya} - 6G_y + 0,5 \cdot 10,18 G_y) = 1,48925 G_s + \\ + 1,43865 G_{ya} + 6,271111 G_y;$$

## Koeffitsient $\beta$ ni nominal optimal qiymatini aniqlash

$\beta$	1,2	1,3	1,4	1,5	1,6	1,7	1,8
$x = \sqrt[4]{\beta}$	1,046635	1,06779	1,087757	1,106682	1,124683	1,141858	1,158292
$x^2 = \sqrt[4]{\beta^2}$	1,095445	1,140175	1,183216	1,224745	1,264911	1,30384	1,341641
$x^3 = \sqrt[4]{\beta^3}$	1,146531	1,217468	1,287052	1,355403	1,422624	1,488801	1,554012
$A_1 = \frac{634,4221}{x}$	606,154	594,145	583,2386	573,265	564,0898	555,6049	547,722
$A_2 x^2 = 67,3298 x^2$	73,7561	76,76778	79,66569	82,46183	85,16621	87,78732	90,3324
$G_c = \frac{A_1 + A_2 x^2}{x}$	679,9101	670,9128	662,9043	655,7269	649,2561	643,3922	638,0544
$B_1 x^3 = 428,694 x^3$	491,5111	521,9212	551,7514	581,0531	609,8702	638,2401	666,1956
$B_2 x^2 = 34,91811 x^2$	38,25087	39,81277	41,31567	42,76578	44,16831	45,52765	46,84756
$G_{ya} = B_1 x^3 + B_2 x^2$	529,762	561,7339	593,067	623,8189	654,0385	683,7678	713,0432
$G_{si} = G_c + G_{ya}$	1209,672	1232,647	1255,971	1279,546	1303,295	1327,16	1351,098
$G_y = 38,37654 x^3$	43,9999	46,7222	49,39259	52,01567	54,59536	57,13503	59,6376
1,48925 $G_s$	1012,556	999,1568	987,2302	976,5412	966,9046	958,1718	950,2225
1,43865 $G_{ys}$	762,1421	808,1385	853,2159	897,4571	940,9324	983,7025	1025,82
6,271111 $G_y$	275,9283	293,0001	309,7464	326,1961	342,3736	358,3001	373,994
$P_0 = 1,48925$	2050,626	2100,295	2150,193	2200,194	2250,211	2300,174	2350,036
$P_s = 0,029323 x^2$	0,032121	0,033433	0,034695	0,035913	0,03709	0,038232	0,03934
2,2791 $G_s$	1549,583	1529,077	1510,825	1494,467	1479,719	1466,355	1454,19
2,1507 $G_{ys}$	1139,359	1208,121	1275,509	1341,647	1406,641	1470,579	1533,542
98,98258 $G_y$	4355,224	4624,684	4889,006	5148,646	5403,99	5655,373	5903,084
2921,085 $x^2$	3199,888	3330,549	3456,274	3577,584	3694,913	3808,629	3919,047
$Q_0 =$	10244,05	10692,43	11131,61	11562,34	11985,26	12400,94	12809,86
$\frac{Q_0}{10^5}, \%$	1,024405	1,069243	1,113161	1,156234	1,198526	1,240094	1,280986
$G_0 = \frac{C_1}{x^2} = \frac{269,1828}{x^2}$	245,7292	236,089	227,501	219,7869	212,8077	206,4538	200,637
1,03 $G_0$	253,1011	243,1716	234,3261	226,3805	219,192	212,6474	206,6562
$G_o = 1,03 \cdot 1,1 \cdot G_0$	260,6941	250,4668	241,3558	233,1719	225,7677	219,0269	212,8558
$k_{oc} G_0 = 2,36 G_o$	615,2381	591,1016	569,5998	550,2857	532,8118	516,9034	502,3398
$C_{ach} = G_o + 2,36 G_o$	1824,91	1823,748	1825,571	1829,831	1836,106	1844,063	1853,437
$J = \sqrt{\frac{0,91 \cdot 18000 \cdot 10^6}{2,4 G_0}}$	1,902996	1,94146	1,977765	2,012173	2,044902	2,076131	2,106011
$\sigma_p = Mx^3 = 14,14 x^3$	9,512649	10,1012	10,67853	11,24563	11,80336	12,35242	12,89347
$d = A_x = 0,2243$	0,213226	0,217536	0,221604	0,225459	0,229126	0,232625	0,235973
$d_{12} = \alpha d = 1,40 d$	0,315574	0,321953	0,327973	0,333679	0,339107	0,344285	0,349241
$l = \pi d_{12} / \beta$	0,825753	0,77764	0,735597	0,698502	0,665497	0,635916	0,609231
$\bar{C} = d_{12} + d_{12} + 2 \cdot a_{22}$	0,438865	0,446967	0,454615	0,461863	0,468757	0,475336	0,48163

$$Q_0 = k'_{t,d} k''_{t,d} q_s (G_s + 0,5 k_{t,u} k_{t,p} G_y) + k'_{t,d} k''_{t,d} q_{ya} (G_{ya} - 6G_y + 0,5 k_{t,u} k_{t,p} G_y) + k''_{t,d} \sum q_3 n_3 P_3 = 1,2 \cdot 1,07 \cdot 1,775 (G_s + 0,5 \cdot 42,45 x_{1,19} \cdot G_y) + 1,2 \cdot 1,07 \cdot 1,675 (G_{ya} - 6 \cdot G_y + 0,5 \cdot 42,45 \cdot 1,19 \cdot G_y) + 1,07 \cdot 3200 x_{4,041468} x^2 + 1,07 \cdot 2500 \cdot 3 \cdot 0,029323 x^2 = 2,2791 G_s + 2,1507 G_{ya} + 98,982 \\ 58 G_y + 2921,085 x^2;$$

$$G_y = 0,492 \cdot 10^4 \cdot k_s \cdot k_{ys} \cdot A^3 \cdot x^3 = 0,492 \cdot 0,9 \cdot 1,029 \cdot 0,00846 x^3 = 38,37654 x^3;$$

$$P_s = 0,785 \cdot k_s \cdot A^2 x^2 = 0,785 \cdot 0,9 \cdot 0,04150 x^2 = 0,029323 x^3; \\ P_z = P_s \cdot 1,41 = 0,02932255 \cdot 1,414214 x^2 = 0,041468 x^2.$$

$$1.11. x = d/A = 0,22/205 = 1,072; x^2 = 1,148; x^4 = 1,318.$$

$$1.12. \beta = x^4 = 1,072^4 = 1,318.$$

1.13. O'zakning aktiv kesim yuzasi:

$$P_s = 0,785 k_s A^2 x^2 = 0,785 \cdot 0,9 \cdot 0,205^2 \cdot x^2 = 0,02979 \cdot x^2 = 0,02979 \cdot 1,148 = \\ = 0,0342 m^2.$$

1.14. Chulg'amning o'rtacha diametri

$$d_{12} = aA x = 1,46 \cdot 0,205 \cdot 1,072 = 0,321 m.$$

1.15. Chulg'amlar uzunligi

$$l = \pi d_{12} / \beta = 3,14 \cdot 0,322 / 1,318 = 0,765 m.$$

1.16. Chulg'amlar uzunligi

$$l = \pi d_{12} / \beta = 3,14 \cdot 0,322 / 1,318 = 0,765 m.$$

1.17. O'zak balandligi

$$l_s = l + 2 l_0 = 0,765 + 2 \cdot 0,050 = 0,865 m.$$

1.18. O'zak o'qlari orasidagi masofa

$$C = d_{12} + a_{12} + bd + a_{22} = 0,321 + 0,020 + 0,33 \cdot 0,22 + 0,018 = 0,432 \text{ m.}$$

1.19. Bitta o'ram EYUKi

$$U_{o,r} = 4,44 f P_s B_s = 222 \cdot 0,0342 \cdot 1,60 = 12,15 \text{ V.}$$

## Chulg‘amlarni hisoblash

### Past kuchlanish chulg‘amini hisoblash

Transformator chulg‘amlarini hisoblash past kuchlanish (PK) chulg‘amlarini hisoblashdan boshlanadi. PK chulg‘ami sterjen va yuqori kuchlanish (YUK) chulg‘ami orasida joylashtiriladi.

PK chulg‘amining bitta fazasiga to‘g‘ri kelgan o‘ramlar soni

$$W_1 = U_{fl} / (4,44 f B_s P_s).$$

Olingan qiymat yaxlitlanadi o‘ramlar soni toq yoki juft bo‘lishi mumkin.

Uch fazali transformator yoki sterjen chulg‘amlari parallel ulangan bir fazali transformatorlarda topilgan o‘ramlar soni  $W_1$  bitta sterjenga to‘g‘ri keladigan o‘ramlar soni ham deyiladi. O‘ramlar soni butunlangandan so‘ng, bitta o‘ram kuchlanishi topiladi,  $V$

$$U_o = U_{fl} / W_1. \quad (2.1)$$

Sterjendagi haqiqiy induksiya ,  $T_1$

$$B_s = U_o / (4,44 f P_s). \quad (2.2)$$

Qolgan hisoblashlar PK chulg‘amining har bir turi uchun alohida bajariladi.

1. *To‘g‘ri burchakli simdan tayyorlangan bir va ikki qatlamlili silindirsimon chulg‘amni hisoblash.*

Chulg‘amning qatlamlari soni, odatda, ikkiga teng deb olinadi. Bitta sterjening quvvati 6–10 kVA gacha bo‘lgan transformatorlarda chulg‘am bir qatlamlili qilib o‘raladi va ayrim hollarda yuqori quvvatli transformatorlarda uch qatlamlili qilib o‘raladi.

Bir qatlamdagisi o‘ramlar soni:  
bir qatlamlili chulg‘am uchun  $W_q$ ,

$$W_{q1} = W_1, \quad (2.3)$$

ikki qatlamlili chulg‘am uchun

$$W_{q1} = W_1 / 2. \quad (2.4)$$

O'ramning o'q bo'yicha taxminiy o'lchami, m

$$h_{o'1} = l_1 / (W_{q1} + 1). \quad (2.5)$$

O'ramning taxminiy kesimi, mm<sup>2</sup>

$$P_1'' = I_1 / (j_{o'rt} \cdot 10^{-6}), \quad (2.6)$$

bunda  $j_{o'rt}$  — tok zichligining o'rtacha dastlabki qiymati mis chulg'am uchun

$$J_{o'rt} = 0,746 k_d \frac{P_q u_{o'}}{Sd_{12}} 10^4 \quad (2.7)$$

yoki alyuminiy chulg'am uchun

$$J_{o'rt} = 0,463 k_d \frac{P_q u_{o'}}{Sd_{12}} 10^4 \quad (2.8)$$

formulalardan topiladi.

$P'_1$  va  $h_{o'1}$  olingan qiymatlari uchun 16 va 17-ilovalardan transformator chulg'am simlari quyidagi qoidalarga rioya qilib tanlanadi:

a) parallel simlar soni:  $n_{v1}$  yon tomoni bilan o'ralganda 4–6 dan va qirrasi bilan o'ralganda 6–8 dan oshmasligi kerak;

b) hamma simlarni ko'ndalang kesim o'lchamlari bir xil;

d) o'ramning parallel simlarini radial o'lchamlari o'zaro teng;

e) simlarning radial o'lchamlari formula, jadval yoki egriliklar (5.7§ [1]) bo'yicha topilgan  $q$  o'lchamlar chegarasidan chiqmaydi (odatda, moyli transformatorlar uchun  $q \leq 1200 \text{ W/m}^2$  va kamdan-kam holatlarda  $q \leq 1400 \text{ W/m}^2$ ) yoki ruxsat etilgan qo'shimcha isroflar (odatda 5% dan oshmaydi (45-ilovaliga qarang). Quruq transformatorlarda A izolyatsiyali issiqqa chidamlilik sinfi uchun  $q \leq 280 \text{ W/m}^2$  va B sinfi uchun  $q \leq 320 \text{ Bt/m}^2$  deb qabul qilinadi).

g) chulg‘am qovurg‘asimon o‘ralganda radial o‘lchamni o‘q bo‘yicha o‘lchamga nisbati 1,3 dan kam va 3 dan ko‘p bo‘lmasligi kerak;

e) chulg‘amning hisoblangan balandligi ( $W_{o\cdot 1}+1$ ) $h_{o\cdot 1}$  1 dan 5÷15 mm ga kichik bo‘lishi kerak. Tanlangan sim o‘lchamlari mm da quyidagicha yoziladi:

$$\text{parallel simlar soni} \times \frac{\text{izolyatsiyasiz simning o‘lchamlari}}{\text{izolyatsiyali simning o‘lchamlari}}$$

$$n_s \times \frac{a \cdot b}{a' \cdot b'} \quad (2.9)$$

$n_{o\cdot}$  –parallel simlardan iborat o‘ramning to‘la kesimi  $m^2$  da quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$P_1 = n_s \cdot P''_1 \cdot 10^{-6}, \quad (2.10)$$

bunda  $P''_1$  – bitta sim kesimi,  $mm^2$ .

Olinan tok zichligi,  $A/m^2$

$$J'_1 = I_1 / P_1. \quad (2.11)$$

O‘ramning o‘q bo‘yicha o‘lchami m, da 2.1-rasmdan aniqlanadi:

$$h_{o\cdot 1} = n_s \cdot b' \cdot 10^{-3}. \quad (2.12)$$

Chulg‘amning o‘q bo‘yicha o‘lchami, m

$$\ell_1 = h_{o\cdot} \cdot (W_{q1} + 1) + (0,005 \div 0,015). \quad (2.13)$$

Chulg‘amning radial o‘lchami (2.1 va 2.2–rasmlar bo‘yicha belgilanishi), m:

$$\text{bir qatlamlili } a_1 = a' \cdot 10^{-3},$$

$$\text{ikki qatlamlili } a_1 = (2a' + a_{11}) \cdot 10^{-3} \quad (2.14)$$

Kanalning radial o‘lchami  $a_{11}$   $U_1 \leq 1kV$  bo‘lganda izolyatsiya shartlari bo‘yicha 4 mm dan kam olinmaydi va 37- ilovadan issiqlik qaytarish shartlari bo‘yicha tekshiriladi. Agar simning haqiqiy radial

o'Ichami,  $q$  (yuqoriga qarang) ning chegaraviy qiymati bo'yicha topilgan chegaraviy o'Ichamlariga teng yoki uning yarmidan kam bo'lsa, qatlamlar orasidagi kanal qattiq qatlamlararo izolyatsiya 0,5 mm li ikki qatlam elektroizolyatsion karton bilan almashtiriladi. Bu holatda (2.14) formulada kanal o'Ichami o'rniغا 1 mm qalinlikdagi qatlamlararo izolyatsiya qo'yiladi. Quruq transformatorda chulg'amning ikki qatlamlari orasidagi havo kanallari kengligi 37.b – ilova bo'yicha qabul qilinadi.

Kuchlanish 1 kV dan katta bo'lsa silindirsimon chulg'am kam qo'llaniladi. Bu holatda qatlamlararo izolyatsiya 4.5-§ [1]dan aniqlanadi.

Chulg'amning ichki diametri, m

$$D'_1 = d + 2a_{01} \cdot 10^{-3}. \quad (2.15)$$

Chulg'amning tashqi diametri, m

$$D''_1 = D'_1 + 2a_1. \quad (2.16)$$

PK chulg'ami va sterjen orasidagi  $a_{01}$  kanal kengligi chulg'amining izolyatsiya shartlari va 4.5 §, 4.6 § [1] lar bo'yicha sterjenni qanday presslanishiga qarab aniqlanadi. Bir qatlamlili va qatlamlari orasida sovituvchi kanali bo'limgan ikki qatlamlili chulg'amlar ikkita sovituvchi yuzaga ega.

Bu holatda butun transformatorning PK chulg'amining to'la sovituvchi yuzasi

$$P_{01} = sk_3 \pi (D'_1 + D''_1) \ell_1 \quad (2.17)$$

Qatlamlari orasidagi sovituvchi kanal kengligi 37-ilova ko'rsatilganidan kam bo'limgan ikki qatlamlili chulg'am to'rtta sovituvchi yuzaga ega bo'ladi.

$$P_{01} = sk_3 \pi (D'_1 + D''_1) \ell_1 \quad (2.18)$$

bunda  $s$  – aktiv sterjenlar soni.

Chulg‘amning reyka va boshqa izolyatsion detallar bilan yopiladigan qism yuzalarini hisoblovchi koefitsient  $k_z$ . Dastlabki hisoblashlarda  $k_z=0,75$  deb qabul qilinishi PK chulg‘amini qisqa tutashish isroflarini aniqlagandan so‘ng (7.1§ [1] qaralsin) chulg‘am yuzasidagi issiqlik oqim zichligi  $W/m^2$  topiladi:

$$q_1 = P_{asos} \cdot k_{k1} / P_{01} \quad (2.19)$$

yoki

$$q_M = \frac{107}{k_z} \cdot 10^{-10} k_d b \frac{a}{a'} J^2 \quad (2.20)$$

$$q_A = \frac{172}{k_z} 10^{-10} k_d b \frac{a}{a'} J^2 \quad (2.21)$$

ifodalardan topiladi.

Chulg‘amning harorati juda ham oshib ketmasligi uchun olingan  $q$  ni qiymati 5.7 § [1]ko‘rsatilgan oraliqlarga to‘g‘ri kelishi kerak.

PK chulg‘ami uchun to‘g‘ri burchakli simdan tayyorlangan silindirsimon chulg‘am uch va to‘rt qatlamlı qilib o‘ralishi mumkin. Bunday chulg‘amni hisoblash yuqoridaqidek haqiqiy qatlamlar sonini va tegishli tuzatishlar kiritilib o‘tkaziladi.

## **2. Vintli chulg‘amni hisoblash** (2.3-rasm).

Bitta yo‘lli yoki ikkita yo‘lli (ko‘p yo‘lli) chulg‘amni tanlash, bitta o‘ram balandligini aniqlashga bog‘liq u taxminan quyidagi formulalardan aniqlanadi:

bir yo‘lli chulg‘am uchun

$$h_{o\cdot 1} \approx \ell_1 / (W_1 + 4) - h_{k1}, \quad (2.22)$$

tekis tarqalgan transpozitsiyali (o‘rin almashish) ikki yo‘lli chulg‘am uchun

$$h_{o\cdot 1} \approx \ell_1 / (W_1 + 1) - h_{k1}, \quad (2.23)$$

bunda  $h_{k1}$ -o'ramlar orasidagi moylisovutuvchi kanalning balandligi;  $h_{k1}$  taxminiy qiymati  $h_{k1} \approx 0,1 a_1$ , deb qabul qilinishi mumkin.  $h_{k1} \geq 4$  mm bu yerda  $a_1$ -PK chulg'amining radial o'lchami,

$$a_1 \approx k_1 \frac{a_1 + a_2}{3}, \quad (2.24)$$

ifodadan taxminiy aniqlanadi.

Bir yo'lli chulg'amning o'ramini maksimal balandligi izolyatsiyalagan chulg'am simini maksimal o'lchamiga teng bo'ladi va mis sim uchun 16,5 mm va alyuminiy sim uchun 18,5 mm dan oshmasligi kerak. Shuning uchun (2.22) ifodadan mis sim uchun  $h_{o1} \leq 0,0165$  m (16,5 mm) va alyuminiy sim uchun  $h_{o1} \leq 0,0185$  m (18,5 mm) olinganda bir yo'lli chulg'am qo'llaniladi. Bu formuladan  $0,035 \div 0,045 \geq h_{o1} \geq 0,0155 \div 0,0185$  m ( $35 \div 45 \geq h_{o1} \geq 15,5 \div 18,5$  mm) mos ravishda ikki yo'lli chulg'am qo'llaniladi  $h_{o1}$  ning aniqroq qiymati (2.23) ifodadan aniqlanadi. Ba'zi hollarda, masalan quvvati 1600 kVA PK chulg'ami 400 V va chulg'amning faza toki 2309 A bo'lsa, to'rt yo'lli chulg'am qo'llaniladi.

O'ramning taxminiy kesimi  $P'_1 = I_1 = (J_{o1} \cdot 10^{-6})$  topiladi.

Chulg'amning yo'l soni aniqlangandan so'ng, o'ramning balandligi  $h_{o1}$  chulg'am sirtidagi issiq oqim zichligi  $q$  bo'yicha (2.25) yoki (2.26) formulalar yoki 2.4-rasmdagi

$$b \leq qk_Z / (1,07J^2 \cdot 10^{-8}) \quad (2.25)$$

$$b \leq qk_Z / (1,72J^2 \cdot 10^{-8}) \quad (2.26)$$

grafiklar yordamida tekshiriladi. Agar o'ram balandligi  $h_{o1}$  b ning yarmidan kam bo'lsa, bir yo'lli chulg'amda ikki o'ramdan so'ng radial kanallar qilish mumkin. Ikki yo'lli chulg'amda ikki guruh simlari o'rami orasidagi moyli kanalni qistirma bilan almashtirish mumkin. Agar qistirma qalinligi  $2 \times 0,5$  mm, agar  $h_{o1} - h_{k1} \leq b$  bo'lsa, chulg'amning mis simidagi tok zichliklari  $2,2 \cdot 10^6 \div 2,5 \cdot 10^6$  A/m<sup>2</sup> dan oshmasa va alyuminiy simdagi  $1,4 \cdot 10^6 \div 1,8 \cdot 10^6$  A/m<sup>2</sup> dan oshmasa vintli chulg'amni radial kanalsiz o'ramlarni bir-biriga yopishtirib

ishlatish mumkin. Agar  $h_k=0$  bo'lsa, bunday chulg'amning bitta o'ram balandligi (2.22) va (2.23) formulalardan topiladi:

$$h_o \approx l_{o \cdot 1} \approx (\omega_1 + 4) - h_{k1};$$

$$h_{o \cdot 1} \approx l_{o \cdot 1} \approx (\omega_1 + 1) - h_{k1};$$

topilgan mis sim uchun  $h_{o \cdot 1} \leq 0,0155$  mli (15,5 mm) va alyuminiy sim uchun  $h_{o \cdot 1} \leq 0,0185$  mm li (18,5 mm) bo'lsa, bir yo'lli chulg'am olinadi. Agar (2.23) ifodadan  $0,031 \div 0,037 \geq h_{o \cdot 1} \geq 0,0155 \div 0,0185$  mm ( $31 \div 37 \geq h_{o \cdot 1} \geq 15,5 \div 18,5$  mm) bo'lsa, ikki yo'lli chulg'am olinadi. Bu chulg'amni qo'lanishi mumkinligi 5.7§- [1] aniqlanadi.  $q = 1200 \div 1400 \text{ W/m}^2$  ba  $h_s = 0,8$  bo'lganligi tufayli metall simning umumiy chegaraviy radial o'lchami

$$b \leq q k_Z / (1,72 J^2 \cdot 10^{-8}) \quad (2.25)$$

$$b \leq q k_Z / (1,72 J^2 \cdot 10^{-8}) \quad (2.26)$$

ifodalardan topiladi.

Radial kanalsiz bir yo'lli chulg'amning radial o'lchami  $b$  dan katta bo'lsa, ikki qatlamlili ikki yo'lli vintli chulg'am qo'llaniladi. Bu holda vintli chulg'amning qatlamlari ketma-ket ulanadi va qatlamlar orasida  $0,01 \cdot l$  kenglikdagi moyli kanal qilinadi. O'ramlar soni nisbatan katta bo'lgan holda bir yo'lli ikki qatlamlili chulg'am ishlatiladi.

Chulg'am tuzilishi uzul-kesil tanlangandan so'ng,  $P_1 \cdot 10^{-3}$  va  $h_{o \cdot 1} \cdot 10^{-3}$  taxminiy qiymatiga chulg'am simi sortamenti (17 va 18 - ilovalar) dan quyidagi talablar hisobga olinib, mos sim kesimi tanlanadi.

1. Eng kam parallel simlar soni bir yo'lli chulg'amda to'rtta, ikki yo'lli chulg'amda sakkizta bo'lishi kerak.

2. Hamma parallel simlar bir xil o'lchamga va ko'ndalang kesim yuzasiga ega.

3. Radial kanalli chulg'amda simning katta o'lchami  $q$  ning ruxsat etilgan qiymati bo'yicha topilgan

$$b \leq qk_z / (1,07J^2 \cdot 10^{-8}) \quad (2.26)$$

$$b \leq qk_z / (1,72J^2 \cdot 10^{-8})$$

formulalar yoki 2.4-rasmdagi tasvirdan aniqlangan chegaraviy o'lchamdan chiqmaydi.

4. Radial kanalsiz chulg'amda radial o'lcham va radial yo'nalishidagi simlar soni ruxsat etilgan  $q$  ning va ruxsat etilgan  $q_0$ 'shimcha quvvat isrof darajasini hisobga olib tanlangan.

5. Tanlangan sim o'lchamlari va radial kanal bo'yicha hisoblangan qiymatiga teng.

Tanlangan sim o'lchamlari, mm da quyidagicha yoziladi:

parallel simlar soni  $\times$  isolyatsiyasiz simning o'lchamlari  
izolyatsiyali simning o'lchamlari  
ya'ni

$$n_{bl} \times \frac{a \cdot b}{a' \cdot b'}.$$

O'ramning to'la kesimi,  $m^2$

$$P_1 = n_s P''_1 \cdot 10^{-6}, \quad (2.27)$$

bunda  $P''_1$ -bitta simning kesimi,  $m^2$  17,  $a$  ilova va 17,  $b$  -ilovalardan tanlanadi.

Tok zichligi  $A/m^2$

$$J = I_1 / P_1. \quad (2.28)$$

Bir va ikki yo'lli chulg'amlarning o'ram balandligi  $h_{o \cdot 1}$  va chulg'am radial o'lchami 2.5-rasmdan aniqlanadi.

Transformator sovitilgandan so'ng bosim bilan tekshirilgan chulg'amning balandligi  $I_1$  quyidagi formulalardan aniqlanadi: uchta transpozitsiyali bir yo'lli chulg'am uchun (2.5.a-rasm)

$$I_1 = b' \cdot 10^{-3} (W_1 + 4) + k \cdot h_k \cdot (W_1 + 3) \cdot 10^{-3} \quad (2.29)$$

Uchta transpozitsiyali va ikkita o'ramdan so'ng kanali bo'lgan bir yo'lli chulg'am uchun (2.5, b- rasm)

$$\ell_1 = b' \cdot 10^{-3} (W_1 + 4) + k \cdot \left[ h_k \cdot \left( \frac{W_1}{2} + 2 \right) + \delta \frac{W_1}{2} \cdot 10^{-3} \right] \quad (2.30)$$

bunda  $\delta$ - ikkilangan o'ram orasidagi qistirma qalinligi, odatda 1-1,5 mm ga teng.

Tekis tarqalgan transpozitsiyali ikki yo'lli chulg'am uchun (2.5.d – rasmdan)

$$\ell_1 = 2b' \cdot 10^{-3} (W_1 + 1) + k \cdot h_k \cdot (2W_1 + 1) \cdot 10^{-3} \quad (2.31)$$

Ikki gurux simlari orasidagi kanali bo'lмаган ikki yo'lli chulg'am uchun (2.5. e-rasm)

$$\ell_1 = 2b' \cdot 10^{-3} (W_1 + 1) + k \cdot [h_k \cdot W_1 + \delta (W_1 + 1) \cdot 10^{-3}], \quad (2.32)$$

$k$  –chulg'am quritilib va bosim bilan tekshirilgandan so'ng g'altaklari orasidagi qistirmani kirishishini hisobga oluvchi koefitsient.  $k=0,94 \div 0,96$  deb qabul qilinadi. Bir va ikki yo'lli chulg'amning radial kanallari bo'lмаган holatidagi ch ulg'am balandligi  $h_k=0$  bo'lgan uchun (2.29) va (2.30) ifodalardan topilishi mumkin. Chulg'amning radial o'lchami  $a'_1$  mm da 2.5-rasmdan aniqlanadi.

Chulg'amning ichki diametri, m

$$D'_1 = d + 2a_{01} \cdot 10^{-3} \quad (2.33)$$

bunda  $a_{01}$  mm da 10–ilovadan olinadi.

Chulg'amning tashqi diametri, m

$$D''_1 = D'_1 + 2a_1 \cdot 10^{-3} \quad (2.34)$$

Sterjen va PK chulg'ami orasidagi kanal kengligi  $a_{01}$  4.5 § va 4.6 § [1] ko'ra chulg'am izolyatsiya shartlari va sterjenni bosim bilan presslash usullaridan aniqlanadi. Qisqa tutashish isroflarini (7.1 § [1]

qarang) aniqlangandan so'ng chulg'am yuzasidagi issiq oqim zichligini topiladi. Radial kanalli chulg'am uchun  $q$  (2.35) – (2.35 d) ifodalardan topiladi va topilgan  $q$  ruxsat etilgan qiymatlar bilan solishtiriladi:

$$q_m = \frac{107Jlw_q k_d}{k_z(b' + a_1)} 10^{-10} \quad (2.35)$$

$$q_A = \frac{172Jlw_q k_d}{k_z(b' + a_1)} 10^{-10} \quad (2.35 \text{ a})$$

$$q_M = \frac{214Jlw_q k_d}{k_z(b' + a_1)} 10^{-10} \quad (2.35 \text{ b})$$

$$q_A = \frac{344Jlw_q k_d}{k_z(b' + a_1)} 10^{-10} \quad (2.35 \text{ d})$$

$I$  – chulg'amning faza toki (bir fazali transformatorlarda sterjen toki);  $w_k$  – g'altakdagi o'ramlar soni: bir yo'lli chulg'amda 1,0; 2 yo'lli chulg'amda 0,5;  $k_z$  – yuzaning yopilish koefitsienti  $k_z=0,75$ ;  $a_1$  – chulg'amning radial o'lchami, m.

### ***Yuqori kuchlanishli (YUK) chulg'amni hisoblash***

YUK chulg'aminin nominal kuchlanish va shaxoblanish kuchlanishini olish uchun kerak bo'ladigan o'ramlar sonini aniqlashdan boshlanadi. Nominal kuchlanishdagi o'ramlar soni quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$W_{N2} = W_1 \frac{U_{f2}}{U_{f1}} \quad (2.36)$$

YUK chulg‘ami yulduz ulanganda rostlanuvchi kuchlanishning bitta pog‘onasidagi o‘ramlar soni

$$W_r = \Delta U / (U_o \sqrt{3}), \quad (2.37)$$

bunda  $\Delta U$  – bitta rostlash pog‘onasidagi chulg‘am kuchlanishi yoki ikkita qo‘shni shaxoblanishidagi kuchlanishlar farqi, V;  $U_o$  – chulg‘amning, bitta o‘ramining kuchlanishi.

Odatda kuchlanishni rostlash pog‘onalari o‘zaro teng qilib bajariladi, shunga ko‘ra pog‘onalardagi o‘ramlar soni ham teng bo‘ladi.

Bu holatda chulg‘am shaxoblanishidagi o‘ramlar soni:  
ikki pog‘onalida :  
kuchlanishning yuqori pog‘onasi

$$W_2 = W_{N2} + W_r \quad (2.38)$$

nominal kuchlanishda  $W_{N2}$ ;  
kuchlanishning pastki pog‘onasi

$$W_2 = W_{N2} - W_r. \quad (2.39)$$

To‘rt pog‘onalida:  
kuchlanishning yuqori pog‘onalarida

$$W_2 = W_{N2} + 2W_r, \quad W_{N2} + W_r; \quad (2.40)$$

nominal kuchlanishda  $W_{H2}$ ;  
kuchlanishning pastki pog‘onalarida

$$W_{N2} - W_r, \quad W_{N2} - 2W_r. \quad (2.41)$$

Uch fazali transformatorlarda yoki ikkita sterjenli chulg‘amlari parallel ulangan bir fazali transformatorlarda topilgan o‘ramlar soni  $W_{N2} + W_r$  éki  $W_{N2} + 2W_r$  bitta sterjendagi o‘ramlar soni deb hisoblanadi. Ikkita sterjen chulg‘amlari ketma-ket ulangan bir fazali transformatorlarda bitta sterjenda bu o‘ramlar sonining yarmi

joylashtiriladi. YUK chulg'amining balandligi  $I_1$  ga teng qilib olinadi, ya'ni  $I_1 = I_2$ .

YUK chulg'amidagi tok zichligining ( $A/m^2$ ) dastlabki qiymati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$J_2 \approx 2J_{0,r}J_1. \quad (2.42)$$

Qisqa tutashish isroflari berilmagan holatlarda, tok zichligini topish uchun 19-ilovadan foydalanish mumkin.

YUK chulg'ami hisoblanib, sterjenga joylashtirilgandan so'ng, dastlabki qizishini baholash uchun, sovitiladigan yuzadagi issiq oqim zichligi ( $W/m^2$ ) quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$q_2 = \frac{P_{asos2}}{P_{02}} \cdot k_{k2} \quad (2.43)$$

yoki (2.35)–(2.35a) ifodalardan aniqlanadi. Olingan  $q$  ning qiymati 5.7 [1] dagi ruxsat etilgan qiymatdan katta bo'lmasligi kerak.

### **Dumaloq simdan tayyorlangan ko'p qatlamlili silindirsimon chulg'amni hisoblash (2.6 - rasm)**

O'ramning taxminiy kesimi

$$P'_2 = I_2 / (J_2 \cdot 10^{-6}) \quad (2.44)$$

ifodadan aniqlanadi. Transformatorning chulg'am simining turiga va kesimiga qarab (16-ilovaga qarang) mos kesimdagi sim yoki ayrim hollarda ikkita parallel sim tanlanadi.

Tanlangan sim o'lchamlari quyidagicha yoziladi:

sim markasi  $\times$  parallel simlar soni  $\times$  isolyatsiyasiz simning o'lchamlari  
izolyatsiyali simning o'lchamlari

ya'ni  $n_s \times \frac{d_1}{d_2}$ , mm.

O'ramning to'la kesimi,  $m^2$

$$P_2 = n_s \cdot P_2'' \cdot 10^{-6}, \quad (2.45)$$

bunda  $P_2''$  bitta sim kesimi,  $mm^2$ .

Olingen tok zichligi,

$$J_2 = I_2 / P_2 \text{ A/m}^2. \quad (2.46)$$

Qatlamdagi o'ramlar soni

$$W_{q2} = \ell_2 \cdot 10^3 / (n_s d_2') - 1. \quad (2.47)$$

Chulg'amdagi o'ramlar soni

$$n_{q2} = W_2 / W_{q2} \quad (2.48)$$

( $n_{q2}$ —yaqin butun songacha yaxlitlanadi).

Ikkita qatlamning ishchi kuchlanishi, V

$$U_{iq} = 2W_{q2} \cdot U_o. \quad (2.49)$$

4.5-§ [1] dagi ko'rsatmalarga mos qilib, 12-ilovadan ikkita qatlamning ishchi kuchlanishi qiymatiga ko'ra, chulg'amning ikkita qatlami orasiga qo'yiladigan kabel qog'ozining umumiy qalinligi  $\delta_{MK}$  va qatlamlarining soni tanlanadi.

Ko'p holatlarda sovutish shartlariga ko'ra har bir sterjen chulg'amlari orasida o'q bo'yicha moyli kanali bo'lgan ikkita konsentrik g'altak ko'rinishida bajariladi. Ichki g'altakning qatlamlar soni chulg'amning umumiy qatlamlar sonining  $1/3$ ,  $2/5$  qismidan oshmasligi kerak. Bu turdag'i chulg'amni PK chulg'ami tomonida ishlatsila, ikkita silindr orasidagi ichki va tashqi g'altaklarning qatlamlar soni bir xil qilib olinadi.

G'altaklar orasidagi moyli kanalning minimal kengligi  $a''_{22}$  37- ilovadan tanlanadi. Bitta sterjenga to'g'ri keladigan quvvat  $3 \div 6$  kVA dan oshmaydigan transformatorlarda o'q bo'yicha kanali bo'limgan bitta g'altakdan iborat chulg'am ishlatalishi mumkin.

Chulg'amning radial o'lchami, m:  
ekransiz bitta g'altak

$$a_2 = \left[ d'_2 \cdot n_{q2} + \delta_{Mk} \cdot (n_{k2} - 1) \right] \cdot 10^{-3} \quad (2.50)$$

**ekransiz ikkita g'altakli**

$$a_2 = \left[ d'_2 \cdot n_{q2} + \delta_{Mk} \cdot (n_{q2} - 1) + a'_{22} \right] \cdot 10^{-3} \quad (2.51)$$

20 va 35 kV kuchlanishli chulg'amlarda, chulg'amning ichki qatlaming tagiga metall ekran o'rnatiladi. Ekran 0,5 mm qalinlikdagi alyuminiy qatlamidan iborat tutashtirilmagan silindr. Ekran chulg'amning liniya uchi bilan elektr usulda ulanadi ichki qatlaming boshi va chulg'amning ichki qatlamidan qatlamlararo izolyatsiya bilan izolyatsiyalanadi. Ekranning bunday izolyatsiyasi moyli kanal tomondan ham qo'yiladi.

Ekran bo'lgan holatdagi chulg'amning radial o'lchami quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$a_{2ekr} = a_2 + [\delta_{ekr} + 2\delta_{mk}] \cdot 10^{-3}, \quad (2.52)$$

bunda  $\delta_{ekr} = 0,5$  mm,  $a_2$  (2.50) va (2.51) ifodadan  $\delta_{mk}$  12- ilovadan aniqlanadi. 35 kV li ishchi kuchlanish uchun ekran va qatlamlararo izolyatsiyaning ichki qatlamini o'zgartirish hisobiga chulg'amning radial o'lchamini 3 mm ga qo'shimcha oshirish mumkin.

PK va YUK chulg'amlari orasidagi o'q bo'yicha kanalning optimal radial o'lchami  $a_{12}$  va izolyatsion silindrning qalinligi quruq transformator uchun 4.6-§ [1] dan va moyli transformator uchun 4.5-§ [1] da chulg'amning sinov kuchlanishlariga qarab tanlanadi.

(2.52) ifodadan topilayotgan ekrani chulg'amning radial o'lchami  $a_{2ekr}$ , faqat chulg'amning o'lchamlari aniqlanayotganda hisobga olinadi. Chulg'amlarning sochilma EYUKi hisoblanayotganda (2.50) ifodadan aniqlangan  $a_2$  o'lchami hisobga kiritiladi va munosib ravishda chulg'amlar orasidagi hisoblangan moyli kanal kengligini oshirib qabul qilinadi:

$$a_{12ekr} = (a'_{12} + \delta_{ekr} + 2\delta_{mu}) \cdot 10^{-3}. \quad (2.53)$$

$$P_2 = n_s \cdot P''_2 \cdot 10^{-6}, \quad (2.45)$$

bunda  $P''_2$  bitta sim kesimi,  $mm^2$ .

Olingen tok zichligi,

$$J_2 = I_2 / P_2 \text{ A/m}^2. \quad (2.46)$$

Qatlamdagi o'ramlar soni

$$W_{q2} = \ell_2 \cdot 10^3 / (n_s d'_2) - 1. \quad (2.47)$$

Chulg'amdagi o'ramlar soni

$$n_{q2} = W_2 / W_{q2} \quad (2.48)$$

( $n_{k2}$ —yaqin butun songacha yaxlitlanadi).

Ikkita qatlamning ishchi kuchlanishi, V

$$U_{iq} = 2W_{q2} \cdot U_o. \quad (2.49)$$

4.5-§ [1] dagi ko'rsatmalarga mos qilib, 12-ilovadan ikkita qatlamning ishchi kuchlanishi qiymatiga ko'ra, chulg'amning ikkita qatlami orasiga qo'yiladigan kabel qog'ozining umumiy qalinligi  $\delta_{MK}$  va qatlamlarining soni tanlanadi.

Ko'p holatlarda sovutish shartlariga ko'ra har bir sterjen chulg'amlari orasida o'q bo'yicha moyli kanali bo'lgan ikkita konsentrik g'altak ko'rinishida bajariladi. Ichki g'altakning qatlamlar soni chulg'amning umumiy qatlamlar sonining  $1/3$ ,  $2/5$  qismidan oshmasligi kerak. Bu turdag'i chulg'amni PK chulg'ami tomonida ishlatisa, ikkita silindr orasidagi ichki va tashqi g'altaklarning qatlamlar soni bir xil qilib olinadi.

G'altaklar orasidagi moyli kanalning minimal kengligi  $a''_{22}$  37-ilovadan tanlanadi. Bitta sterjenga to'g'ri keladigan quvvat 3-6 kVA dan oshmaydigan transformatorlarda o'q bo'yicha kanali bo'limgan bitta g'altakdan iborat chulg'am ishlatalishi mumkin.

Chulg'amning radial o'chami, m:  
ekransiz bitta g'altak

$$a_2 = \left[ d_2^* \cdot n_{q2} + \delta_{Mk} \cdot (n_{k2} - 1) \right] \cdot 10^{-3} \quad (2.50)$$

ekransiz ikkita g'altakli

$$a_2 = \left[ d_2' \cdot n_{q2} + \delta_{Mk} \cdot (n_{q2} - 1) + a'_{22} \right] \cdot 10^{-3}. \quad (2.51)$$

20 va 35 kV kuchlanishli chulg'amlarda, chulg'amning ichki qatlamining tagiga metalli ekran o'matiladi. Ekran 0,5 mm qalinlikdagi alyuminiy qatlamidan iborat tutashtirilmagan silindr. Ekran chulg'amning liniya uchi bilan elektr usulda ulanadi ichki qatlamning boshi va chulg'amning ichki qatlamidan qatlamlararo izolyatsiya bilan izolyatsiyalanadi. Ekranning bunday izolyatsiyasi moyli kanal tomondan ham qo'yiladi.

Ekran bo'lgan holatdagi chulg'amning radial o'lchami quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$a_{2ekr} = a_2 + [\delta_{ekr} + 2\delta_{mk}] \cdot 10^{-3}, \quad (2.52)$$

bunda  $\delta_{ekr} = 0,5$  mm,  $a_2$  (2.50) va (2.51) ifodadan  $\delta_{mk}$  12-ilovadan aniqlanadi. 35 kV li ishchi kuchlanish uchun ekran va qatlamlararo izolyatsiyaring ichki qatlamini o'zgartirish hisobiga chulg'amning radial o'lchamini 3 mm ga qo'shimcha oshirish mumkin.

PK va YUK chulg'amlari orasidagi o'q bo'yicha kanalning optimal radial o'lchami  $a_{12}$  va izolyatsion silindring qalinligi quruq transformator uchun 4.6-§ [1] dan va moyli transformator uchun 4.5-§ [1] da chulg'amning sinov kuchlanishlariga qarab tanlanadi.

(2.52) ifodadan topilayotgan ekrani chulg'amning radial o'lchami  $a_{2ekr}$ , faqat chulg'amning o'lchamlari aniqlanayotganda hisobga olinadi. Chulg'amlarning sochilma EYUKi hisoblanayotganda (2.50) ifodadan aniqlangan  $a_2$  o'lchami hisobga kiritiladi va munosib ravishda chulg'amlar orasidagi hisoblangan moyli kanal kengligini oshirib qabul qilinadi:

$$a_{12ekr} = (a'_{12} + \delta_{ekr} + 2\delta_{mu}) \cdot 10^{-3}. \quad (2.53)$$

$$D'_2 = D''_2 + 2a_{12}. \quad (2.54)$$

Chulg'amning ichki diametri (ekran bo'lgan holatda uning ichki izolyatsiyasiga) m

Chulg'amning tashqi diametri:  
 ekransiz  $D''_2 = D'_2 + 2a_2,$  (2.55)  
 ekran bilan  $D''_2 = D'_2 + 2a_{2ekr}.$  (2.56)

Qo'shni sterjenlarning tashqi chulg'amlari orasidagi izolyatsiya oraligi  $a_{22} = a''_{22} \cdot 10^{-3}$ , bunda  $a''_{22}$  mm da moyli transformatorlarda 11-ilovadan topiladi.

Sovutish yuzasi  $m^2$

$$P_{02} = c \cdot n \cdot k \cdot \pi (D'_2 + D''_2) \cdot \ell_2, \quad (2.57)$$

bunda c- magnit sistemaning sterjenlar soni.

To'g'ridan-to'g'ri silindrga o'rالgan bitta g'altak uchun 2.7, a-rasmdan n=1,0;  $D'_2 = 0$ ; k=1,0.

Bitta g'altak uchun 2.7, b-rasmdan n=1,0; k=0,88

Ikkita g'altak uchun 2.7, e-rasmdan n=1,5; k=0,83 va 2.7, f-rasmdan n=2; k=0,8.

k- koeffitsient chulg'am yuzasini izolyatsion detallar bilan yopiq qismini va ichki tashqi yuzalar sonini hisobga oladi. Ichki yuza uchun k=0,75. Tashqi yuzagasovutivchi moyning bemalol yaqinlashgan holati uchun k=1. PK tomonida bu turdag'i chulg'am qo'llanilgan holatda (2.7,v-rasm) uchun k=0,75; n=2.

### **To'g'ri burchakli simdan tayyorlangan ko'p qatlamlili silindrsimon chulg'amni hisoblash**

Quvvati 1000 kVA va undan ortiq kuchlanishi 10 va 35 kV bo'lgan moyli transformatorlarda YUK chulg'ami (ba'zi holatlarda PK chulg'ami) sifatida bu turdag'i (2.8-rasm) chulg'amlar ishlataladi.  $\ell_2$ ,  $P'_2$  va  $J_2$  aniqlangandan so'ng, umumiy kesimi  $P'_1$  bo'lgan bir yoki ikki-uchta parallel simlarni shunday tanlash kerakki, sovutiluvchi chulg'am yuzasidagi issiq oqim zichligi o'zining ruxsat etilgan chegaraviy

qiymati  $q=200 \div 1400 \text{ W/m}^2$  dan oshmasligi lozim. Chulg'amning hamma o'ramlarining to'liq kesimini olish uchun lozim bo'lgan simning umumiylig'i yig'indisi radial o'lchami

$$b = W_2 P_2 / (\ell_2 k_{o'q}). \quad (2.58)$$

$k_{o'q}$  – chulg'amning o'q bo'yicha yo'naluvchi chulg'am izolyatsiyasini hisobga oluvchi o'rtacha koefitsient; mis uchun 0,92 va alyuminiy uchun 0,93 qabul qilinishi mumkin.  $P_2 = P_2' \cdot 10^{-6}$ . PK chulg'ami uchun  $W_2$  ni o'rniiga  $W_1$ .

Simning radial o'lchami  $\alpha$  va 45° -ilova yordamida tanlangan chulg'amning qatlamlar soni  $n_{q2}$ , chulg'amning qo'shimcha isroflari qabul qilingan darajadan oshmaydigan qilib tanlanadi.

Simning aniq kesimi 17,  $\alpha$  -ilovadan tanlanadi va quyidagicha yoziladi:

sim markasi  $\times$  parallel simlar soni  $\times$   $\frac{\text{izolyatsiyasiz simning o'lchamlari}}{\text{izolyatsiyali simning o'lchamlari}}$   
ya'ni

$$\text{sim markasi} \times n_s \times \frac{a \times b}{a' \times b'}.$$

O'ramning to'la kesimi,  $\text{m}^2$

$$P_2 = n_s \cdot P_2'' \cdot 10^{-6}. \quad (2.59)$$

Olingan tok zichligi

$$J_2 = I_2 / P_2. \quad (2.60)$$

Qatlamdagi o'ramlar soni

$$W_{q2} = \frac{\ell_2}{n_s \cdot b'} \cdot 10^{-3} - 1. \quad (2.61)$$

Chulg'amdagagi qatlamlar soni

$$n_{q2} = W_2 / W_{q2} \quad (2.62)$$

( $n_{o_2}$ -yaqin katta songacha yaxlitlanadi).  
Ikkita qatlamning ishchi kuchlanishi

$$U_{iq} = 2W_{q2} \cdot U_{o_2} \quad (2.63)$$

4.5 -§ [1] dagi ko'rsatmalarga mos qilib, 12 – ilovadan ikkita qatlamning ishchi kuchlanishi qiymatiga ko'ra, chulg'amning ikkita qatlami orasiga qo'yiladigan kabel qog'ozining umumiy qalinligi  $\delta_{mk}$  va qatlamlarning soni tanlanadi.

Kuchlanishi 20 va 35 kV bo'lgan chulg'amlarda, chulg'am ichki qatlami ostiga metallli ekran o'rnatiladi. Ekran – qalinligi 0,5 mm bo'lgan nomagnit metall tunukadan iborat tutashtirilmagan silindr. Ekran chulg'amning liniya uchi bilan elektr usulda ulanadi (ichki qatlamning boshi) va chulg'amning ichki qatlamidan qatlamlararo izolyatsiya bilan izolyatsiyalanadi. Ekranning bunday izolyatsiyasi moyli kanal tomondan ham qo'yiladi.

Ekransiz chulg'amning radial o'lchami, m

$$a_2 = \left[ a'n_{q2} + \delta_{mk} (n_{q2} - 1) + a'_{22} n_k \right] \cdot 10^{-3}, \quad (2.64)$$

bunda  $a'_{22}$  – kanalning radial o'lchami, mm;  $n_q$  – o'q bo'yicha kanallar soni.

Ekrani chulg'amning radial o'lchami, m

$$a_{2ekr} = a_2 + 0,003, \quad (2.65)$$

bunda 20 va 35 kV kuchlanishlar uchun chulg'amning radial o'lchamini ekran va ikki qatlam qatlamlararo izolyatsiya hisobiga 0,003m (3mm) ga kattalashdiriladi.

PK va YUK chulg'amlari orasidagi o'q bo'yicha kanalning eng kichkina radial o'lchami  $a'_{12}$  va izolyatsion silindrning qalinligi moyli transformatorlar uchun 4.5-§ [1] dan chulg'amning sinov kuchlanishlariga qarab tanlanadi.

(2.63) ifodadan topilayotgan ekrani chulg'amning radial o'lchami  $a_{2ekr}$ , faqat chulg'amning o'lchamlari aniqlanayotganda hisobga olinadi. Chulg'amlarning sochilma EYUKi hisoblanayotganda (2.63)

Ifodadan aniqlanadi  $a_2$  o'lchami hisobiga kiritiladi va mos ravishda chulg'amlar orasidagi moyli kanal kengligini oshirib qabul qilinadi:

$$a_{2ekr} = (a'_{12} + 3) \cdot 10 . \quad (2.66)$$

Chulg'amning ichki diametri (ekran bo'lgan holatda – uning ichki izolyatsiyasigacha), m

$$D'_2 = D''_1 + 2a_{12} . \quad (2.67)$$

Chulg'amning tashqi diametri, m;

$$\text{ekransiz } D''_2 = D'_2 + 2a_2 , \quad (2.68)$$

$$\text{ekran bilan } D''_2 = D'_2 + 2a_{2ekr} . \quad (2.69)$$

Qo'shni sterjen chulg'amlari orasidagi masofa 4.5- § [1] dagi ko'rsatmalari mos ravishda tanlanadi.

Rostlanuvchi shoxobchani joylashtirish sxemasi 2.9, b – rasmdan qabul qilinadi. Sovutish yuzasi  $m^2$ , quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$P_{02} = c \cdot n \cdot k \cdot \pi (D'_2 + D''_2) \cdot \ell_2 . \quad (2.70)$$

Ikkita g'altakli YUK chulg'ami uchun  $n=2$ ;  $k=0,8$ .

Xuddi shunday PK chulg'ami uchun  $n=2$ ;  $k=0,75$ .

**Uzluksiz g'altaksimon chulg'amni hisoblash** (2.10-rasm).

O'ramning taxminiy kesimi

$$P'_2 = I_2 / (J_2 \cdot 10^{-6}) \quad (2.71)$$

Ifodadan aniqlanadi. O'ramning bu kesimiga chulg'am simining turiga qarab (17-ilova) mos kesimdag'i to'g'ri burchakli sim yoki ikkita - to'rtta parallel sim tanlanadi. Bu holda simning katta o'lchami  $b$  ni  $b \leq qk_z / (1,07J^2 \cdot 10^{-8})$ ,  $b \leq qk_z / (1,72J^2 \cdot 10^{-8})$ ,  $k_z=1$ .

(5.6) yoki (5.7) [1] formulalardagi aniqlangan ruxsat etilgan o'lchamdan oshmaydigan qilib tanланади. Tanланган о'lchamlar quyidagicha yoziladi:

$$\text{sim markasi} \times \text{parallel simlar soni} \times \frac{\text{isolyatsiyasiz simning o'lchamlari}}{\text{izolyatsiyali simning o'lchamlari}} \\ \text{ya'ni}$$

$$\text{sim markasi} \times n_s \times \frac{a \times b}{a' \times b'}$$

Simning tanланган kesimi  $P_2'' \text{ mm}^2$ .

O'ramning to'la kesimi,  $\text{m}^2$

$$P_2 = n_s \cdot P \cdot 10^{-6}$$

Tok zichligi,  $\text{A/m}^2$

$$J_2 = I_2 / P_2 . \quad (2.72)$$

Odatda, kerakli o'ram kesimiga  $P_2'$  chulg'am simlarining sortamentida tomonlari nisbati  $b/a$  turlicha bo'lgan bir necha sim kesimi mos keladi. Bu esa o'ramlarni g'altakka joylashish keng variantlarini beradi.

Chulg'amning ixcham tuzilishini olish uchun, sim sortamentidan parallel simlar soni kam bo'lgan katta kesim va  $b$  ning katta o'lchamini olish tavsiya etiladi. Bu paytda quyidagi talablar bajarilishi kerak:

1) Umumiy g'altaklar soni juft va turli g'altaklar soni to'rttadan oshmasligi kerak;

2) 35 kV li kuchlanishda bitta g'altakning ishchi kuchlanishi 800–1000 V dan oshmasligi kerak, 110 kV li kuchlanishda bitta g'altakning ishchi kuchlanishi 1500–1800 V ga, 220 kV li kuchlanishda esa 2500–3000 V ga yetishi mumkin;

3) Nominal kuchlanishi 20, 35 kV va undan yuqori bo'lganda, kuchlanishni rostlash uchun xizmat qiladigan va kuchaytirilgan izolyatsiyali o'ramlar har xil g'altaklarga joylashishi kerak; o'ramlar soni har xil bo'lgan yoki o'lchamlari bilan farq qiladigan yoki izolyatsiyasi bilan farq qiladigan g'altaklar odatda qulay hisoblash uchun har xil harflar bilan belgilanadi;

4) G'altakdagi o'ramlar soni butun yoki kasr bo'lishi mumkin, kasr holatda maxraj chulg'am aylanasidagi reykalar soniga teng;

5) Chulg‘amning umumiyligi  $l_2$  quritilgan va presslangandan so‘ng, PK chulg‘am balandligi  $l_1$  ga mos bo‘lishi kerak.

Bu chulg‘amda g‘altak balandligi  $h_{g'al}$  izolyatsiyali simning katta o‘lchami  $b'$  ga teng. Nominal kuchlanishlari 20 kV va undan yuqori bo‘lgan YUK chulg‘amlarini kirish o‘rnalari (g‘altak) kuchaytirilgan izolyatsiyali qilinadi. Kuchaytirilgan izolyatsiya YUK chulg‘amiga o‘ta kuchlanish impulsi ta’siri paytida o‘ramlar orasidagi zaryadsizlanishning oldini oлади.

Har bir fazada chulg‘amining kirish g‘altaklarining ikkala uchiga kuchaytirilgan izolyatsiya qilinadi. Kirish g‘altak va o‘ramlarining kuchaytirilgan izolyatsiyasini hisoblash 4.5 § [1] dagi ko‘rsatmalariga asosan o‘tkaziladi.

Izolyatsiyasiz sim ko‘ndalang kesimining katta o‘lchami  $b$  tanlanganda, uning chulg‘ami issiqlik chiqarish shartlariga asosan tekshiriladi. Bu o‘lcham, chulg‘amning qizigan yuzasidagi magnit oqimining ruxsat etilgan qiymatiga asosan (2.25) yoki (2.26) formulalardan hisoblangan o‘lchamlardan katta bo‘lmasisligi kerak (odatda  $q=1200 \div 1400 \text{ W/m}$ ). Agar tanlangan  $b$  ning o‘lchami (2.25) yoki (2.26) formuladan olingan qiymatni yarmidan ko‘p bo‘lmasa, qo‘sh g‘altakdagagi radial kanalni shayba bilan almashtirish mumkin (5.6-§ [1] ga qarang).

Radial kanal balandligi  $h_k$ , quvvati 160 dan 6300 kVA gacha va ishchi kuchlanish 35 kV dan oshmaydigan transformatorlarda 4 dan 6 mm gacha, quruq transformatorlarda 10 dan 20 mm gacha o‘zgaradi. Kanal qilinmaydigan qo‘sh g‘altaklarda kanal o‘rniga shayba qo‘yiladi. Shaybaning qalinligi 0,5 mm va chulg‘am kuchlanishlari 110 va 220 kV va katta quvvatli transformatorlarda kanal balandligi 4 dan  $10 \div 15$  mm gacha tanlanishi mumkin. Hamma holatlarda kanal o‘lchami  $h_k$ , 4.5-§ [1] dagi elektr izolyatsiya mustahkamligi shartlari bajariluvchi ko‘rsatma asosida tanlanadi va 46-ilovadagi sovutish shartlari bo‘yicha tekshiriladi.

Bitta sterjendagi g‘altaklar soni quyidagi formuladan taxminan aniqlanadi:

$$n_{g'al2} \approx \frac{\ell_2 \cdot 10^3}{b' + h'_k} \quad (2.73)$$

bunda  $h'_k$ -mm o'lchanadi.

Qo'sh g'altakdagi shaybali ikkilangan g'altak va g'altaklari orasida kanallari bo'lgan qo'sh g'altakdagi g'altaklar soni:

$$n_{g'al2} \approx \frac{2\ell_2 \cdot 10^3}{2b' + h''_k + \delta_{sh}}, \quad (2.74)$$

G'altakdagi taxminiy o'ramlar soni:

$$W_{g'al2} \approx \frac{W_2}{n_{g'al2}}. \quad (2.75)$$

Hamma g'altaklari orasida kanal bo'lgan chulg'am uchun, m:

$$\ell_2 = \left\{ b' \cdot n_{g'al2} + k \left[ h'_k \left( n_{g'al} - 2 \right) + h'_{kr} \right] \right\} \cdot 10^{-3}. \quad (2.76)$$

Shaybali ikkilangan va qo'sh g'altaklari orasida kanallari bo'lgan chulg'am uchun, m:

$$\ell_2 = \left\{ b' \cdot n_{g'al2} + k \left[ h'_k \left( \frac{n_{g'al2}}{2} - 2 \right) + h'_{kp} + \frac{n_{g'al2}}{2} \cdot \delta_{sh} \right] \right\} \cdot 10^{-3}. \quad (2.77)$$

Chulg'am uzilishi joyidagi va rostlanuvchi o'ramlar joylashadigan kanal balandligi  $h'_{kr}$ , 4.5-§ [1] dagi elektr izolyatsiya mustahkamligi shartlari bajariladigan ko'rsatma asosida tanlanadi. Chulg'amni bosim bilan tekshirib, quritilgandan so'ng izolyatsiyani kirishishini hisobga oluvchi koeffitsient  $k=0,94 \div 0,96$ .

Chulg'amning radial o'lchami, m

$$a_2 = a' \cdot n_s \cdot W_{g'al} \cdot 10^{-3}, \quad (2.78)$$

bundu  $W_{g,n12}$ -g'altakdag'i o'ramlar soni, yaqin butun katta songacha yaxlitlanadi;  $a'$ - simning radial o'lchami, mm.

Ichki va tashqi diametrlar shuningdek chulg'am yuzasidagi issiq oqim zichligi q mos ravishda (2.67), (2.68), (2.35) - (2.35, f) dan anqlanadi.

Qo'shni sterjendagi YUK chulg'ammlari orasidagi masofa  $a_{22}$  4.5 § yoki 4.6§-[1] lardagi ko'rsatmalar asosida tanlanadi.

### *Transformatorning chulg'ammlarini tanlash va hisoblash*

**$I_M$  variant.** PK chulg'amni hisoblash.

2.1. Chulg'amning o'ramlari soni:

$$w_1 = U_{fl}/U_o = 230,9/14,41 = 16$$

$w_1 = 16$  deb qabul qilamiz.

2.2. Bitta o'ram kuchlanishi:

$$U_o = U_{fl}/w_1 = 230,9/16 = 14,4 \text{ V.}$$

2.3. Chulg'amdagi o'rtacha tok zichligi:

$$J_{o,r} = 0,746 k_d \frac{P_u}{Sd_{12}} \frac{q_{o'}}{10^4} =$$

$$= 0,746 \cdot 0,93 \cdot 12200 \cdot 14,4 / 1000 / 0,331 \cdot 10^4 = 3,69 \text{ MA/m}$$

2.4. Dastlabki o'ram kesim yuzasi:

$$P'_o = I_1/J_{o,r} = 1443,4 / 3,69 = 391 = 391,3 \text{ mm}^2.$$

Quvvati 1000 kV·A, kuchlanishi  $U_{fl}=231$  kV, toki  $I_{1f}=1443,4$  A va o'ram kesim yuzasi  $P_o = 391,3 \text{ mm}^2$  bo'lgan PK uchun vintsimon chulg'amni 20-ilovadan tanlaymiz. Radial kanal o'lchamini  $h_k=5$  mm deb olamiz.

2.5. Dastlabki o'ram o'qi bo'yicha o'lchami:

$$h_o = l/(w_1+1) - h_k = 496/(16+1) - 5,00 = 24,2 \text{ m.}$$

2.6. Olingan  $P'_o$  va  $h_o$  kattaliklarga qarab 17, a- ilovadan 12 ta parallel o'tkazilganlar soniga o'ramlar kesim yuzasini:

$$P_1'' = 32,9 \text{ mm}^2, n_s \times \frac{a \times b}{a' \times b'}, ya'ni PB12 \times \frac{3,55 \times 9,5}{4,05 \times 10,0},$$

6 ta o'tkazgichdan iborat ikkita guruhga bo'lingan, o'ram guruhlari va o'ramlar orasida 5 mm li kanallar tanlaymiz.

2.7. O'ramning to'la kesim yuzasi:

$$P_1 = n_s \cdot P_1'' \cdot 10^{-6} = 12 \cdot 33,20 = 398 \text{ mm}^2.$$

2.8. Tok zichligi:

$$J_1 = I_{1f} / P_1 = 1443,4 / 398 = 3,62 \text{ MA/m}^2.$$

2.9. PK chulg'ami uzunligi:

$$l_1 = 2b \cdot 10^{-3} (w_1 + 1) + kh_k(2w_1 + 1) \cdot 10^{-3} = 2 \cdot 10,0 \cdot 10^{-3} \cdot (16 + 1) + 0,96 \cdot 0,5 (2 \cdot 6 + 1) \cdot 10^{-3} = 0,421 \text{ m.}$$

2.10. Chulg'am radial o'lchamini 2.5-rasmga qarab topamiz:

$$a_1 = (n_s/2) \cdot a = 12/2 \cdot 4,05 = 24,3 \text{ mm.}$$

2.11. Chulg'amning ichki diametri:

$$D'_1 = d + 2a_0 = 0,240 + 2 \cdot 0,015 = 0,270 \text{ m.}$$

2.12. Chulg'amning tashqi diametri:

$$D''_1 = D'_1 + 2a_1 = 0,270 + 2 \cdot 0,0243 = 0,3196 \text{ mm.}$$

2.13. Chulg'amning o'rtacha diametri:

$$D_{o'ri} = (D'_1 + D''_1)/2 = (0,27 + 0,3196)/2 = 0,295 \text{ m.}$$

2.14. Chulg'am yuzasidagi issiqlik oqimi zichligi:

$$q = \frac{107J \cdot 10^6 I_1 w_k}{k_z(b' + a_1)} 10^{-10} = \frac{107 \cdot 3,62 \cdot 10^6 \cdot 1443 \cdot 0,5 \cdot 0,93}{0,75(0,0100 + 0,0243)} 10^{-10} = 963,3 \text{ W/m}^2.$$

2.15. Chulg'am metallining vazni:

$$G_{01} = 28 \cdot 10^3 c D_{o'ri} w_1 P_1 = 28 \cdot 10^3 \cdot 3 \cdot 0,295 \cdot 16 \cdot 0,398 = 155 \text{ kg.}$$

2.16. O'tkazgich massasi (18-ilovadan):

$$G_{o'1} = 1,02 \cdot G_{01} = 1,02 \cdot 155 = 158 \text{ kg.}$$

*YUK chulg'amni hisoblash:*

2.17. 2.9-rasmida berilganidek, chulg'am 3 ta fazasining chiqish qisqichlari oxirlari 1 ta 3 fazali almaslab ulagichga ulangan rostlash sxemasini olamiz.

YUK tomonlarida har xil kuchlanishlarni olish uchun quyidagicha ularash kerak:

Kuchlanish, V Chulg'amning shaxoblanishlari

36750	A <sub>2</sub> A <sub>3</sub>	B <sub>2</sub> B <sub>3</sub>	C <sub>2</sub> C <sub>3</sub>
35875	A <sub>3</sub> A <sub>4</sub>	B <sub>3</sub> B <sub>4</sub>	C <sub>3</sub> C <sub>4</sub>
35000	A <sub>4</sub> A <sub>5</sub>	B <sub>4</sub> B <sub>5</sub>	C <sub>4</sub> C <sub>5</sub>
34125	A <sub>5</sub> A <sub>6</sub>	B <sub>5</sub> B <sub>6</sub>	C <sub>5</sub> C <sub>6</sub>
33250	A <sub>6</sub> A <sub>7</sub>	B <sub>6</sub> B <sub>7</sub>	C <sub>6</sub> C <sub>7</sub>

2.18. Nominal kuchlanishdagi YUK chulg'amining o'ramlari soni:

$$w_2 = U_{f2}/U_o = 10000/14,4 = 693.$$

2.19. Bitta pog'ona rostlanadigan o'ramlar soni:

$$w_r = \Delta U / (\sqrt{3} \cdot u_o) = 250 / (1,732 \cdot 14,4) = 10$$

bu yerda

$$\Delta U=U_2 \cdot 2,5\% = U_2 \cdot 0,025 = 10000 \cdot 0,025 = 250 \text{ V}$$

**Pop'ona uchun:**

Kuchlanish, V	Chiqish qisqichlarida o'tamlar soni
10500	$w_2+2 \cdot w_r = 693+2 \cdot 10 = 713$
10250	$w_2+w_r = 693+10 = 703$
10000	$w_2 = 693$
9750	$w_2-w_r = 693-10 = 683$
9500	$w_2-2 \cdot w_r = 693-2 \cdot 10 = 673$

**2.20. Chulg'amning dastlabki tok zichligi:**

$$J_2=2 \cdot J_{o'ram}-J_1=2 \cdot 3,69-3,62=3,75 \text{ MA/m}^2.$$

**2.21. Dastlabki o'ram kesimi:**

$$P_2'=I_{2f}/J_2=33,34/(3,75 \cdot 10^6)=8,88 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2=8,88 \text{ mm}^2.$$

Quvvati 1000 kV·A, kuchlanishi  $U_{12}=10000$  V, toki  $I_{12}=33,3$  A va o'ram kesim yuzasi  $P_2=8,9 \text{ mm}^2$  bo'lgan YUK uchun uzluksiz g'altakli to'g'ri burchakli mis sim chulg'amni 20-ilovadan tanlaymiz. 17, a- ilovadan markasi PB bo'lgan o'tkazgich tanlaymiz:

$$PB-1 \times \frac{a \times b}{a' \times b'} \quad PB-1 \times \frac{2,12 \times 4,5}{2,62 \times 5,0}$$

$$\text{kesim yuzasi } P_2''=1 \cdot 9,18=9,2 \text{ mm}^2=9,2 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2.$$

**2.22. O'ramning to'la kesim yuzasi:**

$$P_2=1 \cdot 9,18=9,2 \text{ mm}^2=9,2 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2.$$

**2.23. Chulg'amning tok zichligi:**

$$J_2=I_{2f}/P_2=33,3/(9,2 \cdot 10^{-6})=3,63 \text{ MA/m}^2.$$

**2.24. O'zakdagি dastlabki g'altaklar soni:**

$$n_g=l \cdot 10^3/b'+h'_k=421/5,0+5=42 \text{ ta g'altak.}$$

**2.25. G'altakdagи dastlabki o'ramlar soni:**

$$w_{g'2}=w_2/n_{g'2}=713/42=17.$$

G'altaklarning o'ramlar sonini umumiylashtirish:

25 ta asosiy V g'altakda 18,0 tada 450 ta o'ram;

9 asosiy g'altakda 17 ta 153 ta o'ram;

8 ta rostalaruvchi D g'altakda 13,75 ta 110 o'ram;

E kuchaytirilgan g'altakda o'ramlar q'uyidagicha o'rnatilgan:

Jami 42 g'altaklar: 713

Chulg'amlar balandligi

$$l_2=\{b' \cdot n_{g'2} + k[h'_k(n_{g'2}-2)+h'_{kr}]\} \cdot 10^3=\{5,0 \cdot 0,42 + 0,96[5(0,42-0,2)+20]\} \times 10^3=0,422 \text{ mm.}$$

**2.26. YUK chulg'amining radial o'lchами:**

$$a_2 = \alpha' w_g = 10^3 = 2,62 \cdot 1 \cdot 17 = 44,4 \text{ mm. } a_2 = \alpha' n_s w_g \cdot 10^{-3} \text{ mm.}$$

2.27. Chulg'amning ichki diametri

$$D'_2 = D''_1 + 2a_{12} = 320 + 2 \cdot 20 = 359,6 \text{ mm} = 0,3596 \text{ m.}$$

2.28. Chulg'amning tashqi diametri

$$D''_2 = D'_2 + 2a_2 = 359,6 + 2 \cdot 44,4 = 448,4 \text{ mm} = 0,4484 \text{ m.}$$

2.29. Chulg'am yuzasidagi issiqlik oqimi zichligi:

$$q_2 = \frac{107 J_2 10^6 I_w k_d}{k_z(b' + a_2)} 10^{-10} = \frac{107 \cdot 3,63 \cdot 10^6 \cdot 33,3 \cdot 17 \cdot 1,05}{0,75(5,0 + 44)} 10^{-10} = \\ = 622 \text{ Vt/m}^2.$$

2.30. O'tkazgich massasi (18-ilovadan):

$$G_{o \cdot 2} = 1,02 \cdot G_{02} = 1,02 \cdot 222,6 = 227 \text{ kg.}$$

$$G_{02} = 28 \cdot 10^3 s D_{o \cdot r} w_2 P_2 = 28 \cdot 10^3 \cdot 3 \cdot 0,404 \cdot 713 \cdot 0,0000092 = 222,6 \text{ kg.}$$

**II<sub>A</sub> variant.** Kuchlanishi 10 kV va toki 57,7 A bo'lgan YUK uchun ko'p qatlamlili silindrsimon to'g'ri burchakli alyuminiy sim g'altakli chulg'am; kuchlanishi 0,4 kV va toki 1443,4 A bo'lgan PK uchun silindrsimon ko'p qatlamlili tasmali alyuminiy chulg'am tanlaymiz (20-ilova).

### **PK chulg'amni hisoblash.**

2.1. Chulg'amning o'ramlari soni:

$$w_1 = U_{fl}/u_o = 230,9/12,15 = 19$$

$$w_1 = 19 \text{ deb qabul qilamiz va } u_o = U_{fl}/w_1 = 230,9/19 = 12,2 \text{ V.}$$

2.2. Chulg'amdagi dastlabki o'rtacha tok zichligi (oldindan):

$$J_1 = 0,463 k_d \frac{P_u u_o}{Sd_{12}} 10^4 = 0,463 \cdot 0,93 \frac{12200 \cdot 12}{1000 \cdot 0,321} 10^4 = 1,988 MA/m^2.$$

2.3. Taxliliy o'ram kesim yuzasi:

$$P_1 = I_1/J_1 = 1443,4/(1,98 \cdot 10^6) = 726 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2 = 726 \text{ mm}^2.$$

Quvvati 1000 kV·A, bo'lgan PK uchun kuchlanishi  $U_{fl} = 230,9 \text{ kV}$  va toki  $I_1 = 1443,4 \text{ A}$  o'ram kesim yuzasi  $P_1 = 726 \text{ mm}^2$  bo'lgan PK uchun silindrsimon ko'p qatlamlili alyuminiy tasmali chulg'am 20-ilovadan tanlaymiz. Alyuminiy tasma o'ramlari balandligini chulg'am balandligiga teng deb olib qalinligini topamiz:

$$\delta = P_1/l = 726 \cdot 10^{-6} / 0,765 = 949 \cdot 10^{-6} \text{ m} = 0,949 \text{ mm.}$$

Shu qalinlikka mos keladigan A6 markali GOST 13726-78 eni 860 va qalinligi  $\Delta \approx 0,8 \text{ mm}$  bo'lgan alyuminiy tasma tanlaymiz.

G'altaklararo izolyatsiya K-120 markali kabel qog'ozini tanlaymiz.

2.4. O'ram kesim yuzasi:

$$P_1 = 0,767 \cdot 0,00095 = 0,000728 \text{ m}^2.$$

2.5. Tok zichligi yuzasi:

$$J_1 = I_{fl} / P_1 = 1443,4 / 0,000726 = 1,988 \text{ MA/m}^2.$$

2.6. Alyuminiy o'tkazgich uchun umumiy yig'indi radial ruxsat etilgan sim o'lchami:

$$b \leq qk_z / (1,72 \cdot J^2 \cdot 10^{-8}), \quad q = 1200 \text{ W/m}^2, \quad k_z = 0,8 \text{ qabul qilamiz:}$$

$$b = 1200 \cdot 0,8 / (1,72 \cdot 1,988^2 \cdot 10^{12} \cdot 10^{-8}) = 14,1 \text{ mm}$$

$$b/k_z = 14,1 / 0,8 \approx 18.$$

PK chulg'amni ikkita g'altakka bo'lamiz, ichki  $A = 9,0 \text{ o'ramdan, tashqi } B = 10 \text{ o'ram hosil bo'ladit}$ :

$$w_1/2 = 19/2 = 9,5.$$

2.7. G'altaklar orasidagi sovituvchi o'q kanalining eni

$$a_{11} = 0,01; \quad l = 0,01 \cdot 0,765 = 0,00765 \text{ m.}$$

2.8. G'altaklarning radial o'lchamlari:

$$A: a'_1 = (9,5 \cdot 0,8 + 12 \cdot 0,12) \cdot 10^{-3} = 9,04 \cdot 10^{-3} \approx 0,0090 \text{ m;}$$

$$a'_1 = \left( \frac{W_1}{2} \cdot \Delta + U_V \cdot 0,12 \right) \cdot 10^{-3} = (9 \cdot 0,8 + 12 \cdot 0,12) \cdot 10^{-3} = 8,64 \cdot 10^{-3} \text{ m.}$$

$$B: a'_1 = (9,5 \cdot 0,8 + 12 \cdot 0,12) \cdot 10^{-3} = 9,04 \cdot 10^{-3} \approx 0,0090 \text{ m;}$$

$$a''_1 = \left( \frac{W_1}{2} \cdot \Delta + U_V \cdot 0,12 \right) \cdot 10^{-3} = (10 \cdot 0,8 + 12 \cdot 0,12) \cdot 10^{-3} = 9,44 \cdot 10^{-3} \text{ m.}$$

2.9. PK chulg'amning radial o'lchami:

$$a_1 = (n_{v1}/2) \cdot a = 0,0090 + 0,008 + 0,0090 = 0,0257 \text{ m} \quad a_1 = A: a'_1 + \Delta + B: a''_1,$$

$$a_1 = a'_1 + a''_1 + \Delta = (8,64 + 9,44 + 0,8) \cdot 10^{-3} = 18,88 \cdot 10^{-3} \text{ m.}$$

2.10. Chulg'am qog'ozli- bakelitli silindrغا quyidagi o'lchamda o'raladi:

$$\theta \frac{0,260}{0,268} \times 0,96 \text{ m.}$$

2.11. Chulg'am diametrlari:

$$\text{ichki } D_1' = 2 \cdot a_1 = 220 + 2 \cdot 15 = 250 \text{ mm} = 0,25 \text{ m;}$$

$$\text{tashqi } D_1'' = D_1' + 2 \cdot a_1 = 250 + 2 \cdot 18,88 = 287,76 \text{ mm} = 0,287 \text{ m.}$$

$$D_{o'f} = (D_1' + D_1'')/2 = (0,25 + 0,287)/2 = 0,2685 \text{ m.}$$

2.12. A va B g'altaklar uchun chulg'am yuzasidagi issiqlik oqimi zichligi:

$$q_A = \frac{172}{k_z} 10^{-10} k_d b \frac{a}{a'} J^2 = = \frac{172}{0,8} 10^{-10} \bullet$$

$$\bullet 1,05 \cdot 9,5 \cdot 0,00095 \cdot 1,982^2 \cdot 10^{12} = 800,5 \text{ Vt/m}^2,$$

bunda  $a/a' \approx 0,5$ ;  $k_z = 0,75$  va  $k_d = 1,05$ .

2.13. Chulg'am metallining massasi:

$$G_{01} = 8,47 \cdot s \cdot D_{o'f} \cdot w_1 \cdot P_1 \cdot 10^3 = 8,47 \cdot 3 \cdot 19 \cdot 0,000726 \cdot 10^3 \cdot 0,2685 = 94,11 \text{ kg.}$$

Simning massasi

$$G_{o'f1} = 1,02 \cdot G_{01} = 1,02 \cdot 94,11 = 95,99 \text{ kg.}$$

### ***YUK chulg'amini hisoblash.***

2.14. Chulg'amning o'ramlari soni:

$$w_2 = U_f / U_o = 10000 / 12,2 = 823.$$

2.15. Bitta pog'ona rostlanadigan o'ramlar soni:

$$w_r = \Delta U / (\sqrt{3} \cdot U_o) = 250 / (\sqrt{3} \cdot 12,2) = 11,9 \approx 12$$

5 ta pog'ona uchun:

Kuchlanish, V	Shaxoblanishdagi o'ramlar soni
10500	$w_2 + 2 \cdot w_r = 823 + 2 \cdot 12 = 847$
10250	$w_2 + w_r = 823 + 12 = 835$
10000	$w_2 = 823$
9750	$w_2 - w_r = 823 - 12 = 811$
9500	$w_2 - 2 \cdot w_r = 823 - 2 \cdot 12 = 799$

2.16. Chulg'amdag'i tok zichligi:

$$J_2 = 2 \cdot J_{o'f} - J_1 = 2 \cdot 1,982 - 1,982 = 1,986 \text{ MA/m}^2.$$

2.17. O'ram kesim yuzasi:

$$P'_2 = I_{2f} / J_2 = 33,34 / (1,986 \cdot 10^6) = 16,78 \text{ mm}^2 = 0,00001678 \text{ m}^2.$$

Quvvati 1000 kV·A, kuchlanishi  $U_2 = 10000$  (35) kV, toki  $I_2 = 33,34$  A va o'ram kesim yuzasi  $P_2 = 16,78 \text{ mm}^2$  bo'lgan YUK uchun uzluksiz g'altakli to'g'ri burchakli alyuminiy sim chulg'amni 20-ilovadan tanlaymiz. 17, a'ilovadan markasi APB bo'lgan o'tkazgich tanlaymiz:  $b = w_2 \cdot P_2 / I_2 \cdot k_{o'q} = 847 \cdot 16,78 / 767 \cdot 0,93 = 19,9 \text{ mm}$

$$PB \cdot n_s \frac{a \cdot b}{a' \cdot b'} \quad PB \cdot 1 \frac{1,60 \cdot 10,6}{2,10 \cdot 11,1}$$

2.18. O'ramning to'liq kesim yuzasi:

$$P''_2 = 1 \cdot 16,80 = 16,80 \text{ mm}^2,$$

2.19. Tok zichligi:

$$J_2 = I_{2f}/P_2 = 33,34/16,80 \cdot 10^{-6} = 1,98 \text{ MA/m}^2 = 1,98 \cdot 10^6 \text{ A/m}^2.$$

2.20. Alyuminiiy o'tkazgich uchun umumiy yig'indi radial o'lchami:

$$b \leq q k_z / (1,72 \cdot J^2 \cdot 10^{-8}), \quad q_2 = 1200 \text{ W/m}^2 \text{ va } k_z = 0,8 \text{ qabul qilamiz:}$$

$$b_2 = 1200 \cdot 0,8 / (1,72 \cdot 1,98^2 \cdot 10^{12} \cdot 10^{-8}) = 14,2 \text{ mm.}$$

2.21. G'altak qatlamidagi o'rmlar soni:

$$w_{q2} = l_2/n_s \cdot b' - 1 = 767/1 \cdot 11,1 = 68,1$$

$$n_q = w_2/w_{q2} = 847/68,1 = 12.$$

2.22. Chulg'amning ikki qatlamidagi kuchlanish:

$$U_{qk} = 2 \cdot w_{q2} \cdot U_o = 2 \cdot 68 \cdot 12 = 1654 \text{ V.}$$

2.23. Ekransiz chulg'amning radial o'lchami  $\delta_{mo,r} = 0,36 \text{ mm}$   
12-ilova

$$a_2 = a' \cdot n_{q2} + \delta_{mo,r} (n_{q2} - 1) + a_{22} \cdot n_k = 2,10 \cdot 12 + 0,36(12-1) + 4 \cdot 5 = 50,2 \text{ mm.}$$

2.24. Chulg'am diametrlari:

$$\text{ichki ekrangacha } D_2' = D'' + 2 \cdot a_{12} = 0,3025 + 2 \cdot 0,020 = 0,3425 \text{ m;}$$

ichki o'tkazgich qatlamigacha

$$D_2'' = D_2' + 2 \cdot a_{22} = 0,3425 + 2 \cdot 0,0502 = 0,443 \text{ mm.}$$

Yuqori kuchlanishli chulg'amni to'liq sovitish yuzasi; m

$$P_{02} = c \cdot k \cdot n \cdot \pi \cdot (D_2' + D_2'') \cdot h = 3 \cdot 2 \cdot 0,88 \cdot 3,14 (0,3425 + 0,443) \cdot 0,767 = 9,98 \text{ m.}$$

2.25. YUK va PK chulg'ami qog'ozli- bakelitli silindr o'lchami quyidagicha:

$$\theta \frac{0,370}{0,38} \cdot 0,97 \text{ m.}$$

2.26. Chulg'am metallining vazni:

$$G_{02} = 8,47 \cdot 10^3 \cdot c D_y w_2 P_2 = 8,47 \cdot 10^3 \cdot 3 \cdot 0,393 \cdot 847 \cdot 0,0000168 = 142 \text{ kg}$$

$$G_{c2} = 1,02 \cdot 142 = 145 \text{ kg.}$$

2.28. Ikkita chulg'am matellining vazni:

$$G_0 = G_{01} + G_{02} = 94,11 + 142 = 236,11 \text{ kg.}$$

2.29. Ikkita chulg'am simlarining vazni:

$$G'_{c1} = G'_{c1} + G'_{c2} = 95,99 + 145 = 240,99 \text{ kg.}$$

## *Qisqa tutashish parametrlarini hisoblash*

### *I<sub>M</sub> variant mis chulg'am*

PK chulg'ami uchun asosiy quvvat isrofi

$$P_{as1}=2,4 \cdot 10^{-12} J_1^2 G_M = 2,4 \cdot 10^{-12} \cdot 3,62^2 \cdot 155 = 4875,3 \text{ W.}$$

YUK chulg'ami uchun asosiy quvvat isrofi

$$P_{as2}=2,4 \cdot 10^{-12} J_2^2 G_M = 2,4 \cdot 10^{-12} \cdot 3,63^2 \cdot 222,6 = 7039,6 \text{ W.}$$

PK chulg'ami uchun qo'shimcha quvvat isrofi koefitsienti

$$k_{q1}=1+0,095 \cdot 10^8 \cdot \beta_1^2 a^4 n^2 = 1+0,095 \cdot 10^8 \cdot 0,268 \cdot 4,5^4 \cdot 10^{-12} \cdot 6^2 = 1,038,$$

$$\text{bunda } \beta_1^2 = (bm k_p/l)^2 = (7,5 \cdot 10^{-3} \cdot 48 \cdot 0,95/0,66)^2 = 0,518^2 = 0,268;$$

$k_p=0,95$  – sochilma maydonning keltirilgan koefitsienti.

O'tkazgichi to'g'ri burchakli YUK chulg'ami uchun qo'shimcha quvvat isrofi koefitsienti

$$k_{q2}=1+0,095 \cdot 10^8 \cdot \beta_2^2 a^4 n^2 = 1+0,095 \cdot 10^8 \cdot 0,246 \cdot 1,4^4 \cdot 10^{-12} \cdot 22^2 = 1,005,$$

$$\text{bunda } \beta_2^2 = (bm k_p/l)^2 = (5,6 \cdot 10^{-3} \cdot 62 \cdot 0,95/0,66)^2 = 0,493^2 = 0,246.$$

PK chulg'am uchlarini chiqish izolyatori bilan ulovchi o'tkazgich uzunligi, Y ulangan chulg'am uchun ( $\Delta$  ulangan chulg'am uchun  $l_{ch}=14 \cdot l$ )

$$l_{ch1}=14 \cdot l=14 \cdot 0,422=5,9 \text{ m.}$$

PK chulg'amli uchlarini chiqish izolyatori bilan ulovchi o'tkazgich og'irligi

$$G_{o \cdot 1}=l_{o \cdot 1} \cdot \Pi_o \cdot \gamma=5,9 \cdot 398 \cdot 10^{-6} \cdot 8900=20,89 \text{ kg.}$$

PK chulg'amli uchlarini chiqish izolyatori bilan ulovchi o'tkazgich quvvat isrofi:

$$P_{chiq1}=2,4 \cdot 10^{-12} j^2 \cdot G_{chi.izo}=2,4 \cdot 10^{-12} \cdot 3,62^2 \cdot 10^{12} \cdot 20,9=657,99 \text{ W.}$$

YUK o'tkazgichning uzunligi

$$l_{ch2}=7,5 \cdot l=7,5 \cdot 0,422=3,16 \text{ m.}$$

YUK chulg'am uchlarini chiqish izolyatori bilan ulovchi o'tkazgich massasi:

$$G_{o \cdot 2}=l_{o \cdot 2} \cdot \Pi_o \cdot \gamma=3,16 \cdot 10 \cdot 0,10^{-6} \cdot 8900=0,282 \text{ kg.}$$

YUK chulg'am uchlarini chiqish izolyatori bilan ulovchi o'tkazgich quvvat isrofi:

$$P_{chiq2}=2,4 \cdot 10^{-12} \cdot j^2 G_o=2,4 \cdot 10^{-12} \cdot 3,63^2 \cdot 10^{12} \cdot 0,282=8,9131 \text{ W.}$$

Bakning o'lchamlarini aniqlashga qadar, bak devorlaridagi va boshqa konstruktiv elementlardagi isroflarni topamiz:

$$P_b=10 \cdot k \cdot S=10 \cdot 0,025 \cdot 1000=250 \text{ W.}$$

Qisqa tutashuvning to'liq isrofi:

$$P_q = P_{as1}k_{q1} + P_{as2}k_{q2} + P_{chiq1} + P_{chiq2} + P_b = 4875 \cdot 1,04 + 7039,6 \cdot 1,005 + 658 + 8,91 + 250 = 13051,6 \text{ W.}$$

YUK chulg'amining nominal kuchlanishi uchun:

$$P_q = 13051,6 - 0,05 \cdot 70748,5 = 12705,5 \text{ W}$$

yoki berilgan kattalikka nisbatan  $12705,5 \cdot 100 / 12200 = 104\%$ .

Qisqa tutashuv kuchlanishining aktiv tashkil etuvchisi

$$u_a = P_q / (10 \cdot S) = 12705,5 / 10000 = 1,27\%$$

Reaktiv tashkil etuvchisi:

$$u_r = \frac{7,9 f S' \beta a_p k_p k_q}{u_o^2} 10^{-1} = \\ = \frac{7,9 \cdot 50 \cdot 333,3 \cdot 2,10 \cdot 0,042 \cdot 0,95 \cdot 1,03}{14,4^2} 10^{-1} = 5,42\%$$

bunda  $\beta = \pi d_{12}$   $l = 3,14 \cdot 0,331 / 0,422 = 2,46$ ;

$$a_p = a'_{12} + (a_1 + a_2) / 3 = 0,020 + (0,024 + 0,044) / 3 = 0,043 \text{ m};$$

$$k_p = 1 - \sigma(1 - e^{-1/\sigma}) = 1 - 0,0477(1 - e^{-1/0,042}) \approx 0,95;$$

$$\sigma = \frac{\dot{a}_{12} + \dot{a}_1 + \dot{a}_2}{\pi l} = \frac{0,027 + 0,030 + 0,042}{\pi \cdot 0,660} = 0,0477;$$

$$k_q = 1 + \frac{lx^2}{m a_p k_p} = 1 + \frac{0,660 \cdot 0,083^2}{3 \cdot 0,051 \cdot 0,95} = 1,031.$$

Qisqa tutashuv kuchianishi:

$$u_q = \sqrt{u_r^2 + u_a^2} = \sqrt{5,42^2 + 1,256^2} = 5,56\%$$

yoki berilgan kattalikka nisbatan  $5,56 \cdot 100 / 5,5 = 101\%$ .

